



**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

ISSN – 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№ 1

**BUXORO – 2022
«DURDONA» NASHRIYOTI**

ILMIY – METODIK JURNAL

TAHRIR HAY'ATI TARKIBI

Bosh muharrir:

Daminov Mirzohid Islomovich

Buxoro davlat pedagogika instituti direktori, p.f.n., dotsent.

Tahrir hay'ati raisi:

Qahhorov Siddiq Qahhorovich

pedagogika fanlari doktori, professor.

Muqimov K.M.	– O'zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor.
Xamidov O.X.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor.
Murodov Sh.N.	– fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Ikramov A.A.	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Raximov Sh.A.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.
Muxtorov E.M.	– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Niyozov A.K.	– texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Sharipov A.Z.	– falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent.
Qahhorov O.S.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor.
Barotov Sh.R.	– psixologiya fanlari doktori, professor.
Olimov Sh.Sh.	– pedagogika fanlari doktori, professor.
Rasulov T.H.	– fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent.
O'rayeva D.S.	– filologiya fanlari doktori, professor.
Amonov M.R.	– texnika fanlari doktori, professor.
Bo'riyev S.B.	– biologiya fanlari doktori, professor.
Mahmudov M.H.	– pedagogika fanlari doktori, professor.
Ma'murov B.B.	– pedagogika fanlari doktori, professor.
Abdullayev M.J.	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor.
Jo'rayev A.R.	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Saidova M.J.	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Nazarov M.R.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.
Izbullayeva G.V.	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Tosheva D.A.	– filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Byulent Bayram	– filologiya fanlari doktori, professor (Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk-Qozoq universiteti)
Timur Kojaog'lu	– filologiya fanlari doktori, professor (AQSH Michigan davlat universiteti)
Irina Pokrovskaya	– filologiya fanlari doktori, professor (Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy universiteti)
Murat Elmali	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Mehmet Y.Y.	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Starikov Marcelo	– pedagogika fanlari doktori, professor (New York)

Muassis: BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tahririyat manzili: Buxoro shahar Piridastgir ko'chasi 2-uy. Telefon: (+998 65) 226-10-97.

Faks: (+998 65) 226-66-75.

Elektron manzil: buxdupi@buxdupi.uz.

ISSN – 2181-4201

BUYUK KELAJAK SARI



Jahon mamlakatlari qatorida O'zbekiston ham ulkan islohotlar va globalashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, avvalo, ilm-fan va ta'lim sohasidagi muammolar, ularning yechimi aynan yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga ishonch hosil qilamiz. Ta'lim tizimida milliy tarzda fikrlashning o'zi ham yetarli emas. Endi ommaviy axborot vositalari, turli tahliliy va ekspert markazlari, ijtimoiy tafakkurning turli shakllari bu borada ancha faollashmoqda. Shu nuqtai nazardan masalaga yondashib, hukmingizga Buxoro davlat pedagogika institutining yangi jurnal nashrini havola qilmoqdamiz.

Jurnalga "Ta'lim transformatsiyasi" deb nom tanlandi. "Transformatsiya" atamasi O'zbek tilining izohli lug'ati (Toshkent, O'zbekiston, IV jild. 2020.b-168.)da –lotincha "transformate" so'zidan olingan bo'lib, "boshqasiga o'zgartirmoq, aylantirmoq, yangilamoq" ma'nolariga tengdir. Demak mohiyat ta'limga innovatsion yondashuv. E'tibor berganmisiz, odatda odamzod uchun yangilik bo'lgan hodisaga nom berish jarayonida qanday so'z taklif etilmasin, ularning barchasida allaqanday saktalik bordek, atamaning, terminning ifoda qudrati hodisaning asl mohiyatiga qaraganda ancha cheklangandek tuyiladi. Lekin vaqt o'tishi, ko'pchilik tilida qayta-qayta takrorlanishi natijasida o'sha so'z yoki atama tom ma'noda o'zi ifoda etishi kerak bo'lgan hodisaning ayniyatiga, aniqroq aytganda, o'ziga xos ramz va obraziga aylanib ketadi. Ya'ni avvalida qo'pol va beo'xshov bo'lib ko'ringan har qanday atama ham ming-minglab insonlarning his-tuyg'ulari yomg'iri ostida sayqal topib, bora-bora bamisoli o'zi ifoda etayotgan hodisaning uzviy bir qismi, ta'bir joiz bo'lsa, kaliti bo'lib qoladi. E'tiqodi, dunyoqarashi, kayfiyati, qalb intilishlari, ilmiy tafakkuri turlicha bo'lgan millionlab insonlarning sezgilari, fikr-mulohazalari ularning o'zlari o'ylab topmagan, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan behisob so'zlarning o'zanidan erkin oqishga, ularning qirg'oqlarini tan olishga majbur bo'ladi. Binobarin, bitta so'z

qancha insonni yaqinlashtiradi, birlashtiradi. Institutimizning jurnali ilm ahlini birlashtirish va ta'lim-tarbiya tizimi taraqqiyoti uchun xizmat qilsa maqsadimiz ushaladi.

Fikrimni Sharqning buyuk pedagogi, yurtdoshimiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan kerakdir",- degan hikmatli iborasi bilan tugatmoqni afzal ko'rdim. Zero, biz ta'sis qilayotgan jurnalimiz mamlakatimiz ilm-fanini, ta'lim-tarbiya tizimini dunyo mamalakatlari darajasida turmog'i uchun misqol qadar ahamiyatli bo'lsa, shu yurtning bir ziyolisi sifatida baxtiyorlik tuyg'usini his qilamiz.

Daminov Mirzohid Islomovich

*Buxoro davlat pedagogika instituti
direktori, p.f.n., dotsent.*

PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK - VRACH KASBIY MAHORATINING MUHIM TARKIBIY KOMPONENTI

MUXTOROV ERKIN
MUSTAFOYEVICH

Buxoro davlat pedagogika instituti o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, psixologiya fanlari nomzodi, dosent.

Anotatsiya: Ushbu maqolada vrach kasbiy mahorati, "Psixologik kompetentlik" termini mazmuni ochib berilgan, I.S. Yakimanskaya, E.F. Zeer kabi olimlarning fikrlaridan namunalar keltirilgan. Vrachning kasbga yondashuvi, o'zini namoyon qilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sub'ekt, ko'nikmalar, tuyg'udoshlik, konseptual kompetent, refleksiya, kasbiy tanglik, ijtimoiy-perseptiv.

Аннотация: В данной статье раскрывается профессионализм врача, содержание термина "психологическая компетентность", приведены примеры мнений таких ученых, как И.С. Якиманская, Э.Ф. Зеер. Речь идет о подходе врача к профессии, самовыражению.

Ключевые слова: субъект, навыки, эмоциональность, концептуальная компетентность, рефлексия, профессиональная напряженность, социально-перспектива.

Abstract: This article reveals the professionalism of the doctor, the content of the term "psychological competence", provides examples of the opinions of such scientists as I.S. Yakimanskaya, E.F. Zeer. It's about the doctor's approach to the profession, self-expression.

Keywords: subject, skills, emotionality, conceptual competence, reflection, professional tension, social perspective.

Hozirgi kunda "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari tarkibida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, xususan, vrachlar psixologik kompetentlik xususiyatiga ega bo'lishlari talab etiladi. Psixologik kompetentlik fanlararo muammo bo'lib, uni o'rganish bilan psixologiya, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar shug'ullanmoqda. Shunga qaramasdan, kompetentlikning ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladigan nazariyasi mavjud emas. Uning shakllanish va rivojlanish omillari hamda mexanizmlarini talqin qilishga turlicha yondashuvlar ko'zga tashlanadi.

Psixologik kompetentlik muammosining dolzarbligiga, uning turli kasbdagi mutaxassislar uchun zarurligiga qaramasdan, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar fragmental xususiyatga ega bo'lib, asosan, uning tuzilmasidagi tarkibiy qismlarni faoliyat va muloqotning muayyan

parametrlariga o'tkazadigan ta'sir doirasi bilan cheklanmoqda. Vrach kasbiy mahoratida psixologik kompetentlik bilan, kompetentlikning bir qator turlari ham talab etiladi. Jumladan;

Texnik kompetentlik – vrachning xastalikni davolash bo'yicha taktikani belgilashi, taktikani amalga oshirish uchun aniq vazifalarni qo'yishi, bu vazifalarni bajarishga mos dori-darmonlar, vosita va texnologiyalarni qay darajada bilishi va egallagani bilan belgilanadi.

Shaxslararo kommunikativ kompetentlik – kommunikativ uquqlar, ko'nikmalar, tuyg'udoshlikning mavjudligini, muloqot jarayonida bemorda yuz berayotgan o'zgarishlarni talqin qila olish qobiliyatini, bemorning hohish-istaklarini tushunish layoqatidan iborat.

Kontekstual kompetentlik – o'zi faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhitni tushunish, unga moslashish qobiliyatlarni qamrab oladi.

Adaptiv kompetentlik – kasbiy faoliyatda yuz beradigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish, ularga moslashish, tashkiliy muhitga ta'sir o'tkaza olish kabi qobiliyatlardan tashkil topadi.

Konseptual kompetentlik – o'zi faoliyat yuritayotgan ixtisoslik bo'yicha bilimlarning asoslari va zamonaviy yangiliklardan xabardorlik, ularni amaliyotga tatbiq qila olish ko'nikmalaridan iborat.

Integrativ kompetentlik – vrachning o'z ixtisosligi bo'yicha vujudga kelayotgan muammolarni optimal ravishda hal qilish, shu sohada faoliyat yuritayotgan boshqa hamkasblari faoliyatiga adekvat baho bera olish kabi sifatlaridan tashkil topadi. Integrativ kompetentlik kompetentlikning yuqorida sanab o'tilgan barcha turlarini egallash asosida shakllanadi.

Vrachning yuqorida sanab o'tilgan kompetentlik turlarini egallagani o'z vazifasini yuqori darajada bajarish uchun yetarli ichki resurslarga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday vrach o'zgarayotgan sharoitlarga osonroq moslashadi, fanning yangi yutuqlarini tezroq o'zlashtiradi va amaliyotga tatbiq qiladi. Bunday vrach boshqa hamkasblari bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladi.

Psixologik kompetentlik va uning turli ko'rinishlari va shakllari orasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir ham deyarli o'rganilmagan. Ayni paytda, kompetentlikning darajalari va mezonlari ham yoritilmagan.

Vrachning psixologik kompetentligi uning kasbiy mahoratida yetakchi o'rinlardan birini egallashi ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi. Bunday e'tirof turli darajadagi hujjatlarda: me'yoriy, professiografik, vrachlik kasbiga bag'ishlangan hujjat va tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Lekin bunday e'tirof nazariya doirasi bilan cheklanmoqda va uni

amaliyotga tizimli tarzda tadbqiq qilishga harakat ham kuzatilmayapti. Masalan, mamlakatimizda vrachlarni attestasiyadan o'tkazishning bir qator mezonlari ishlab chiqilgan. Lekin amalda qo'llanilyotgan talablarda vrachning psixologik kompetentligi va tayyorligi masalalariga e'tibor berilmagan.

Psixologiya fanida vrachlar psixologik kompetentligiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarning juda kamligi kuzatiladi. Bunday hol vrachlarning kasbiy mahoratini o'stirish bo'yicha dasturlar tuzish va amaliyotga tadbqiq qilish vazifasini amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

"Psixologik kompetentlik" tushunchasi mazmunini turli tadqiqotchilar turlicha talqin qilishmoqda. Ba'zi mualliflar bu tushunchani psixologik bilimlar, uquv va ko'nikmalar sifatida izohlasa, boshqalar uni shaxsning universal psixologik tizimi, deb tushuntirishmoqda. Sub'ektning psixologik kompetentligi psixologik fenomen sifatida xorijdagi psixologik maktablar va yo'nalishlar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Bizning mamlakatimizda bu muammoni o'rganish endigina boshlanmoqda.

Psixologiya fanida "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari turlicha izohlanmoqda: "kompetensiya" – muayyan sohadagi bilim va tajriba, mansabdor shaxs yoki muayyan organning vakolatlari doirasi, shaxs bilim va tajribaga ega bo'lgan soha. "Kompetensiya" – qonun, nizom yoki boshqa biror hujjat bilan muayyan organ yoki mansabdor shaxsga berilgan vakolatlari doirasi.

Ba'zi olimlar kompetentlikning mazmunini izohlashda turli tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishadi: kompetentlikni ta'minlaydigan omillar (qobiliyatlar, bilimlar, iste'dod); faoliyat natijalari (mehnat mahsuli, faoliyat ob'ektidagi o'zgarishlar. Psixologiya fanida kompetentlikka berilgan ta'riflar ham turlicha:

- insonga o'z qobiliyatlari va mavqei doirasida faoliyat yuritishi uchun imkon beradigan faollikning ijtimoiy va individual shakllariga o'rgatilganlik darajasi, muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish darajasi.

- sub'ekt ijtimoiy tajribasining shakllanganlik darajasi;
- shaxsning lavozim talablarini muayyan darajada bajarish;
- imkonini beradigan kasbiy sifat va qobiliyatlarning yig'indisi
- tayanch va maxsus kasbiy ta'lim darajasi, kasbiy muammolarni hal qilishning tajribasini jamlash va ish staji;
- atrofdagi dunyoni tushunish me'yori va u bilan o'zaro ta'sirga kirishishning adekvatlik darajasi.

I.S. Yakimanskaya psixologik kompetentlik tarkibiga psixologiyaga oid bilimlar, uquv va ko'nikmalardan tashqari, vrachlik faoliyatida psixologiyaning ahamiyati va rolini aniq tasavvur qilish, bemorlarni davolashda psixologiyaga oid bilimlardan to'g'ri foydalana olish kabilarni kiritadi. Kasb psixologiyasi va kasbiy muvaffaqiyatni tadqiq etar ekan, E.F. Zeer kasbiy kompetentlik tarkibidagi quyidagi komponentlarni ko'rsatadi:

- hamkorlikka layoqatni ifodalaydigan ijtimoiy kompetentlik;
- kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'nikmasi, o'z mehnati natijalarini mustaqil baholay olish, yangi kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish;
- refleksiyaga, kasbiy tanglik va deformasiya holatlarini muvaffaqiyatli bartaraf etish, kasbiy mahoratini oshirishga tayyorlikni qamrab oladigan individual kompetentlik.

Psixologik kompetentlikka berilgan boshqa ta'riflar ham ko'p. Ularning barchasini keltirish ko'p vaqt va joy talab qiladi. Ularning ko'pchiligi aynan bir hodisani turli tomondan turli shaklda izohlashning ko'rinishidir. Aksariyat hollarda ular bir-birini to'ldiradi. Biz ularning barchasini keltirib o'tirmay, vrachning psixologik kompetentligi tarkibini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Vrach kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi muhim tarkibiy qismlardan biri psixologik kompetentlikdir. Psixologik kompetentlikning tarkibiy qismlaridan biri kommunikativ kompetentlik hisoblanadi. Vrachning kommunikativ kompetentligi boshqa kasb egalarining kommunikativ kompetentligi bilan bir qator umumiy jihatlarga ega. Ayni paytda, vrach kommunikativ kompetentligining o'ziga xos jihatlari ham mavjud.

Vrachlikdan boshqa kasb egalari kommunikasiya jarayonida axborot almasha, vrach bu jarayonda axborot almashishdan boshqa funksiyalarni ham bajaradi. Bundan tashqari, vrach uchun kommunikasiya jarayonida boshqa mutaxassislar uchun zarur bo'lmagan sifatlar ham zarur bo'ladi. Masalan, bemorlar bilan muloqot jarayonida vrach uchun zarur bo'lgan sifatlardan biri sabr-toqatli bo'lishdir. Bu sifatning zarurligi vrach muloqotga kirishayotgan bemorlarning psixologik holati bilan bog'liq. Bemorlarning ko'pchiligi kasallik tufayli injiq bo'lib qoladi. Bunday holat, ayniqsa bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur holat vrachdan, ayniqsa, pediatriklardan muloqot jarayonida sabr-toqatli, chidamli bo'lishni talab qiladi. Oddiy suhbat chog'ida suhbatdoshining injiqligi joniga tegsa,

odam suhbatni to'xtatishi va keyinchalik mazkur suhbatdosh bilan uchrashishni umuman istamasligi mumkin. Vrach bunday qila olmaydi.

Kommunikativ kompetentlik muloqot jarayonida kognitiv, emosional va psixomotorik sifatlarda o'zini namoyon qilishda, ulardan foydalanishda ifodalanadi. Bemor bilan muloqot samarali bo'lishi uchun vrach mazkur bemorning xarakter xususiyatlari, jumladan aksentuasiyaarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Aksentuasiyalarning vrach kundalik faoliyatida qo'llashi mumkin bo'lgan qator tipologiyalari mavjud. Ana shu tipologiyalar vrachlar faoliyatida sinovdan o'tar ekan, ularning eliminasiyasi, ya'ni saralanishi yuz berdi. Hozirgi kunda jahon amaliyotida ko'proq qo'llanayotgan tipologiyalar, Shmishek tipologiyasi, Lichko tipologiyasi va Leongard tipologiyasi hisoblanadi. O'zbekistonda psixologiya bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish, bizning mamlakatimizda Leongard tipologiyasiga ustuvorlik berilayotganini ko'rsatadi. Bunday holatni tushunsa bo'ladi. Leongard tipologiyasi muallifning uzoq yillar davomida nevrozlar klinikasida to'plagan tajribasi asosida shakllantirilgan. Mazkur konsepsiya birinchi marta 1960 yilda Berlinda sinab ko'rilgan. Leongardning guvohlik berishicha, o'sha davrda Berlin aholisining yarmida aksentuasiyalar mavjud bo'lgan. Keyinroq, 2008 yilda rossiyalik olimlar guvohlik berishicha, odamlarning 90-95 foizida aksentuasiyalar mavjud. Mana shu holatning o'zi ham vrach amaliy faoliyatida bemorlar xarakterida qanday aksentuasiyalar mavjudligini hisobga olish naqadar zarurligini ko'rsatadi.

Kommunikativ kompetentlik tarkibidagi komponentlardan biri ijtimoiy-perseptiv kompetentlikdir. U muloqot qilinayotgan shaxsni to'la va to'g'ri idrok qilishda, to'g'ri tushunish va baholashda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy perseptiv kompetentlikni tadqiq qilar ekan, N.E. Vegerchuk quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi: maqsadli-motivasion, kognitiv, emosional va baholash komponentlari. Shu bilan birga, mazkur muallif ijtimoiy-perseptiv kompetentlik tarkibiga sub'ektning o'zini kasbiy muloqot va faoliyat olib boruvchi shaxs sifatida baholashga layoqatini ham kiritadi.

Ijtimoiy-perseptiv kompetentlik o'zini individ, faoliyat sub'ekti sifatida to'la, chuqur idrok eta olish, tushunish va baholash sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ijtimoiy-perseptiv kompetentlik insonni ijtimoiy-perseptiv jarayonning to'laqonli sub'ekti bo'la olishga tayyorligi

sifatida tavsiflanishi mumkin. Bunday sifat uning sosium bilan o'zaro ta'siri muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.

Hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ilmiy-texnika progressi, ijtimoiy hayot barcha sohalarining axborotlashuvidir. Bu vaziyat boshqa kasb egalari qatorida vrachlardan ham o'z kasbiga shu paytgacha misli ko'rilmagan ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Raqobatning kuchayishi talab qiladigan sifatlar jumlasiga innovasion fikr yuritish, vrachlik kasbi va amaliyotidagi yangiliklardan muntazam xabardor bo'lish va o'z amaliyotiga keraklilarini tadbiq qila olish, bemorlarning ishonchini qozonish kabilarni kiritish mumkin. Bunday sifatlarga ega bo'lish uchun vrach nafaqat o'z bilimlariga, balki ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga ham oid bo'lgan bilimlarni muntazam o'zlashtirib borishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida vrachning o'z kasbiy mahoratini oshirishdan manfaatdorligi keskin ortadi. Endi, vrach faqatgina mutaxassis sifatida emas, balki jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida o'zini namoyon qilishi kerak bo'ladi.

Kasbiy mahoratni egallash uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bir necha bosqichlarni qamrab oladi. Bu bosqichlar quyidagilar: vrachning kasbga moslashuvi, vrachning mutaxassis sifatida o'zini namoyon qilishi, kasbni egallashda barqaror muvaffaqiyatlarga erishuvi va yuksak kasbiy mahorat bosqichi. Tibbiyot oliygohlarida bu bosqichlarning hammasini bosib o'tish mumkin emas. Bu bosqichlardan hatto dastlabkisi – vrachning kasbga moslashuvi ham oliygohda to'la yakunlanmaydi. Bu bosqichning yakunlanishi oliy ma'lumotga ega bo'lgan vrach mustaqil faoliyat boshlagan dastlabki bir necha yillar davomida yuz beradi.

Kasbiy mahoratning keyingi bosqichlariga o'tishga mustaqil ish jarayoni, malaka oshirish institutlari va kurslarida o'qish, ko'proq o'z ustida ishlash jarayonida erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Ibodullayev Z.R. Asab va ruhiyat. – T.: "ZAMIN NASHR".
2. Solojenkin V.V. Psixologicheskie osnovy vrachebnoy deyatel'nosti. – M.: Akademicheskii proekt, 2003. – S. 74.
3. Shestopal ye.B. Psixologiya kompetentnosti. – Moskva, 2013. – S. 71
4. Abayev Y. K. Logika vrachebnogo myshleniya // Med. novosti, 2007. – № 5. – S. 16-22.
5. Muxtorov E.M. Vrach kasbiy mahorati va psixodiagnostika samaradorligi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2016.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

IKRAMOV AMIRBEK AMINOVICH

*Buxoro pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar,
innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash
bo'limi boshlig'i, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)*

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi rivojlangan ilm-u fanimizda axborot-texnologiyalarining o'rni haqida fikrlar yoritilgan. Ayniqsa ta'lim sohasida axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanganda o'rganish motivatsiyasi oshishi va o'quvchilarning kognitiv qiziqishlari rag'batlantirilishi, mustaqil ish samaradorligi yuqori bo'lishi ta'kidlangan. "Axborot ta'lim texnologiyasi" kontsepsiyasining yuzaga kelishi ta'limdagi kompyuterlarning paydo bo'lishi va keng joriy etilishi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

Kalit so'z: Gipermedia, axborot kibernetikasi, multimedia, kommunikativlik, intellektual mehnat, mekansal fikrlash, gipermatn, hipermedia, "virtual sinf".

Annotation: This article covers the current advanced science and the role of Information Technology in our science. It is especially emphasized that when using information educational technologies in the field of education, the motivation for learning increases and the cognitive interests of students are stimulated, the effectiveness of independent work is high. It is indicated that the emergence of the concept of "information educational technology" is associated with the emergence and widespread introduction of computers in education.

Keywords: Hypermedia, information cybernetics, multimedia, communicativeness, intellectual labor, spatial thinking, hypertext, hypermedia, virtual classroom.

Аннотация: В этой статье рассматривается роль информационных технологий в современной передовой науке. Особо подчеркивается, что при использовании информационных образовательных технологий в сфере образования повышается мотивация к обучению и стимулируются познавательные интересы учащихся, повышается эффективность самостоятельной работы. Показано, что появление понятия "информационные

образовательные технологии " связано с появлением и широким внедрением компьютеров в образование.

Ключевое слова: Гипермедиа, информационная кибернетика, мультимедиа, коммуникативность, интеллектуальный труд, пространственное мышление, гипертекст, гипермедиа, виртуальный класс

XX asrning oxirida insoniyat post-sanoat yoki axborot davri deb ataladigan rivojlanish bosqichiga kirdi. Inson uchun axborot texnologiyalarining imkoniyatlari cheksizdir, professional, iqtisodiy va boshqa ko'plab muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi. Malakali, professional, yangi axborot makonida harakat qilish uchun zarur bilimga ega bo'lganlar bugungi kunning texnik va axborot imkoniyatlarini boshqarishga qodir.

Axborot ta'lim texnologiyalari hayotimizga jadal kirib bordi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni masalasi mahalliy tarmoqlarda birlashtirilgan va global tarmoqqa kirish imkoniga ega bo'lgan kompyuterlarning o'quv-tarbiya jarayonini amaliyotga joriy etish bilan bog'liq.

Boshlang'ich sinflarning o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish va aqliy faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari nafaqat o'quv jarayonining shakllari va usullarini o'zgartirish, balki ta'lim paradigmalarini sezilarli darajada o'zgartirish va boyitish imkonini beradi. Hatto boshlang'ich sinflarda o'zlashtiriladigan fundamental asosiy ko'nikmalar, masalan, o'qish va yozish qobiliyatiga ham o'zgarish sezilmoqda.

Yangi savodxonlik multimedia muhitida axborot oqimlarini boshqarish va gipermedia ob'ektlarini yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Zamonaviy inson hali maktabda jahon axborot muhitida o'qish va yozishni o'rganishi kerak.

Ayrim o'rta umumta'lim ma'ktablarida bugungi kunda o'z veb-saytlari yaratilmoqda, bu maktab uchun muhim va nufuzli biznesga aylanib bormoqda. Biroq, bu, afsuski, ko'p jihatdan ta'lim muassasasining moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq. Ta'lim standartlari va dasturlarida bu hali ko'zda tutilmagan.

Biroq, O'zbekiston ta'limi yangi ming yillikka erkinroq kirib, tashabbus ko'rsatib, o'z ta'lim siyosatini mustaqil ravishda shakllantirishga, o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini

izlashga, qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga va byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishga harakat qildi. Yangi axborot texnologiyalarini faol tatbiq etayotgan ta'lim muassasalari zamonaviy darajadagi o'qitish va yuqori sifatli ta'lim berish istagini namoyon etib, otonalar e'tiborini tortmoqda.

"Axborot" atamasi (lotincha information – tushuntirish, taqdim etish) uzoq vaqtdan beri fan va kundalik hayotda keng qo'llanilmoqda.

"Axborot kibernetikaning asosiy tushunchasidir". "Axborot - bu materiya yoki energiya emas."

"Axborot - bu tegishli sohadagi noaniqlikni kamaytiradigan xabar." Shunday qilib, ma'lumot haqida faqat uning mavjudligi foydalanuvchi paydo bo'lishidan oldin mavjud bo'lmagan obyekt haqida bunday ma'lumotni bergan taqdirda gapirish mumkin.

Yuqoridagi ta'riflardan biz aslida axborot texnologiyalari nafaqat kompyuterning ta'lim jarayonida foydalanishni o'z ichiga olgan texnologiya, balki aslida axborotni qayta ishlash bilan bog'liq har qanday jarayon axborot texnologiyasi deb atalishi mumkin, ammo bu holda biz axborot texnologiyalari orqali yig'ish, qayta ishlash vositalari va usullari to'plamini tushunamiz va obyekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti) holati haqida yangi sifatli ma'lumot olish uchun ma'lumotlarni uzatish tushuniladi.

Bugungi kunda ta'lim mazmuni o'zgarilganligi haqida gapirilmoqda, o'quvchilarning axborot madaniyatini egallash zarurligi to'g'risida umumiy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri, ta'limning eng yuqori namoyishi, jumladan, insonning shaxsiy fazilatlar va uning professional malakasi sifatida tushuniladi. Axborot ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi bir-biridan uzoqda bo'lgan odamlarga bitta loyiha ustida ishlash, birgalikda tadqiqot olib borish va natijalarni tezda almashish imkonini beradi.

Profesional ta'limda axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar uzoq vaqtdan beri davom etmoqda. Bu davrda AQSh, Fransiya, Yaponiya, Rossiya va boshqa bir qator mamlakatlarning ta'lim muassasalarida o'quv maqsadlarida ko'plab kompyuter tizimlari ishlab chiqilgan. Biroq, bunday tizimlarning ko'lami ancha kengroq. Bular yirik sanoat korxonalari, harbiy va ijtimoiy tashkilotlari bo'lib, ular mustaqil ravishda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshiradilar. Bundan tashqari, yangi murakkab mashinalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonini tezlashtiradigan

kompyuter o'qitish tizimlari bilan jihozlash standartga aylanmoqda. Xorijda kompyuter mahsulotini (uslubiy va dasturiy-axborot vositalari) o'quv maqsadlarida ishlab chiqish uning yuqori ilmiy intensivligi va yuqori malakali mutaxassislar: psixologlar, fan o'qituvchilari, kompyuter dizaynerlari, dasturchilarning birgalikdagi faoliyati zarurligi tufayli zarur deb hisoblanadi. Ko'pgina yirik xorijiy korxonalar ta'lim muassasalarida kompyuter ta'lim tizimini yaratish loyihalarini moliyalashtirib, bu borada o'z ishlanmalarini amalga oshirmoqda.

Axborot ta'lim texnologiyalari doirasida axborot jarayonlarini tashkil etish ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash, saqlash va to'plashni tashkil etish, bilimlarni rasmiylashtirish va avtomatlashtirish kabi asosiy jarayonlarni taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Funksional muammolarni hal qilish usullari va axborot jarayonlarini tashkil etish usullarini takomillashtirish mutlaqo yangi axborot texnologiyalariga olib keladi, ular orasida o'qitish bilan bog'liq holda quyidagilar ajratib olish mumkin:

- Kompyuter bo'yicha o'quv dasturlari, jumladan, elektron darsliklar, simulyatorlar, laboratoriya mashg'ulotlari, test tizimlari.
- Shaxsiy kompyuterlar, video uskunalari yordamida qurilgan multimedia texnologiyalari asosida ta'lim tizimlari
- Turli fan sohalarida qo'llaniladigan intellektual va ta'lim ekspert tizimlari.
- Axborot tarmoqlari bo'yicha taqsimlangan ma'lumotlar bazalari.
- Telekommunikatsiya vositalari, jumladan, elektron pochta, telekonferensiya, mahalliy va hududiy aloqa tarmoqlari, ma'lumotlar almashish tarmoqlari va boshqalar.
- Elektron kutubxonalar, taqsimlangan va markazlashtirilgan nashriyot tizimlari.

Ta'limda axborot va kompyuter vositalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagi eng muhim yo'nalishlarni qamrab oladi.

Kompyuter texnologiyalari va informatika o'rganish obyektlari sifatida. Bu yo'nalish ta'lim samaradorligini oshirish muammolari bilan bevosita bog'liq emas. Shu bilan birga, dastlab kompyuterlarning ta'lim sohasiga kirib kelishi, avvalo, kasb-hunar ta'limi tizimida, keyin esa umumiy ta'limda kompyuter texnikasi asoslarini o'qitish bilan aniq bog'liq edi.

Kompyuter pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida. Ushbu sifatda kompyuter va kompyuter fanlari ta'lim tizimining

bunday tarkibiy qismi sifatida qaraladi, bu nafaqat ta'lim jarayoniga nisbatan "vosita" toifasini tushunish uchun mahalliy o'zgarishlarni amalga oshirishga qodir emas, balki mahalliy ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlariga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi: ta'lim, tarbiyalashning maqsadlari, mazmuni, usullari va tashkiliy shakllari va har qanday darajadagi va profildagi ta'lim muassasalarida talabalarning rivojlanishi.

Kompyuter ta'limda ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish vositasi sifatida. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa, fanlararo, kompleks tadqiqotlar har tomonlama axborot ta'minotisiz muvaffaqiyatli bo'la olmaydi. Bunday ta'minlash ta'lim mazmunining hozirgi darajasiga mos keladigan eng dolzarb ma'lumotlar manbalarini izlashni, ushbu ma'lumotlarni tanlash va tanlab baholashni, axborotni tegishli darajada tasniflashni va undan foydalanish erkinligini ta'minlaydigan saqlashni o'z ichiga oladi. potentsial iste'molchilar tomonidan va nihoyat, foydalanuvchining iltimosiga binoan kerakli ma'lumotlarni tezkor taqdim etish.

Kompyuter va informatika ta'lim va pedagogik boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida. Axborotlashtirishning ushbu yo'nalishi ta'lim faoliyatining barcha darajalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni bilan bog'liq - ta'lim muassasasini boshqarishning kundalik ishlaridan respublika va mintaqaviy darajadagi butun sanoatni boshqarishgacha. Optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy muhitning rivojlanish tendentsiyalari to'g'risida ham, ta'lim xarakteriga ega bo'lgan turli xil ma'lumotlar kerak.

Kompyuter – murakkab texnik qurilmadir. Uning ta'lim va pedagogik imkoniyatlari asosan texnik omillar, fan-texnika sohasidagi qilingan yutuqlar bilan belgilanadi, ular kompyuterga ma'lum xususiyatlarni beradi va unga berilgan funktsiyalarni tegishli ta'sir bilan bajarishga imkon beradi, shu jumladan ta'lim talablariga yo'naltirilgan funktsiyalar tizimi.

So'nggi yillarda kompyuterlar va ularga asoslangan axborot texnologiyalari sezilarli darajada o'zgardi. Kompyuterlarning elementar bazasida juda dinamik va muhim o'zgarishlar nafaqat ta'lim jarayonida ulardan kengroq foydalanishga, balki ularning ishining ishonchliligi, aniqligi va tezligini oshirishga, o'z vazifalarini to'g'ri hisoblashdan yanada murakkab, mantiqiy, sezgir va ma'lum darajada ijodiy bo'lishiga olib keldi. Va nafaqat telekommunikatsiya o'quv-pedagogik umumlashtirish va

masofaviy ta'lim tizimlarini yaratish nuqtai nazaridan, balki ta'limning yuqori, bashoratli, ammo allaqachon sezilarli funktsiyalari va vazifalari nuqtai nazaridan – madaniy ta'lim, ma'naviy yaqinlik va jamiyatlarning integratsiyasi, odamlar va inson jamoalarining aqliy muvofiqligi jarayoniga ta'lim berishni qo'llab-quvvatlash.

Pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida kompyuterdan foydalanish samaradorligini tasdiqlovchi ko'plab va juda ishonchli misollar mavjud:

- * ta'lim oluvchilarga o'quv ma'lumotlarini taqdim etish bosqichida;
- * kompyuter bilan interaktiv muloqot jarayonida o'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichida;
- * o'rganilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash bosqichida (ko'nikmalar ,ko'nikmalar);
- * oraliq va yakuniy nazorat va erishilgan o'quv natijalarini o'z-o'zini nazorat qilish bosqichida;
- * tuzatish bosqichida va o'quv jarayonining o'zi va uning natijalari o'quv materiallarining dozasini takomillashtirish, uni tasniflash, tizimlashtirish orqali.

Didaktik va metodik xarakterdagi barcha bu imkoniyatlar, albatta, shubhasizdir. Shuni e'tiborga olish kerakki, faqat mazmunli ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyatlarini emas, balki ushbu ma'lumotni o'quvchilarning muayyan kontingenti bilan o'zlashtirishning psixologik va pedagogik qonuniyatlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda, oqilona tuzilgan kompyuter o'quv dasturlarini qo'llash o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va farqlash, o'quvchilarning bilim faolligini va mustaqilligini rag'batlantirish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, axborot ta'lim texnologiyalari haqiqatan ham samarali bo'lib, o'quv jarayonini tashkil etishning mashhur didaktik tamoyillarini amalga oshirishga yordam beradi, o'qituvchi faoliyatini tubdan yangi mazmun bilan to'ldirib, ularni asosiy ish funksiyasi - ta'lim, tarbiya va rivojlanish vazifalariga qaratishga imkon beradi.

Yuqori darajadagi interaktivlik bilan ajralib turadigan axborot ta'lim texnologiyalari samarali ta'lim-bilim muhitini yaratishga, ya'ni turli didaktik vazifalarni hal qilish uchun foydalaniladigan muhitga yordam beradi. Ushbu muhitning asosiy xususiyati shundaki, u ham jamoaviy, ham shaxsiy ta'lim va mustaqil ta'lim uchun mos keladi. Bundan tashqari, multimediya va axborot kommunikatsiya yordamida kompyuterni

o'rganish funksiyalarini birlashtiradigan ushbu muhit muayyan xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- * o'quvchilarni savodli nutq, imlo, shuningdek, ish natijalarini nashr etish va nashr etish ko'nikmalarini o'rgatish qobiliyati;

- * ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar mavjudligi;

- * telekommunikatsiya tarmog'i orqali ta'limni ijtimoiy jamoaviy jarayonga aylantirish shartlari;

- * muallifning tashqi shaxsiy xususiyatlariga emas, balki axborotning o'zi orqali tarmoq orqali o'zaro aloqaning barcha ishtirokchilarining e'tiborini jalb qilish ;

- * "virtual sinf" ni yaratish, guruh va loyiha o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish shartlari.

Ta'lim sohasida asosiy axborot texnologiyalari qo'llaniladi: matn tahrirlovchi texnologiyalar; grafikli texnologiyalar; raqamli hisoblash texnologiyalari, ma'lumotlarni saqlash, qidirish va saralash texnologiyalari, tarmoq axborot texnologiyalari, multimedia texnologiyalari.

Axborot texnologiyalari yordamida bolalarni o'qitish jarayonida ular matn bilan ishlashni, grafikli obyektlar va ma'lumotlar bazalarini yaratishni, elektron jadvallarni ishlatishni o'rganadilar. Bola ma'lumot to'plashning yangi usullarini hamda ulardan foydalanishni o'rganadi, dunyoqarashi kengayadi.

Darsda axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanganda o'rganish motivatsiyasi oshadi va o'quvchilarning kognitiv qiziqishlari rag'batlantiriladi, mustaqil ish samaradorligi oshadi. Kompyuter axborot texnologiyalari bilan birgalikda ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va o'quvchilarning ijodida mutlaqo yangi imkoniyatlar ochadi. Shunday holatlat bo'ladiki, axborot texnologiyalari insonning professional faoliyatining asosiy vositasiga aylanadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishda shaxsning barcha potentsiallarini — bilim, ma'naviy-axloqiy, ijodiy, kommunikativ va estetik jihatdan amalga oshirishga harakat qilish kerak. Ushbu potentsiallar yuqori darajada amalga oshirilishi uchun axborot ta'lim texnologiyalariga ega bo'lish sohasida pedagogik mahorat talab etiladi. Bu kompetensiyani rivojlantirish oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdan boshlanishi kerak.

Zamonaviy ishlab chiqarish asoslarining ilmiy-texnik taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish intellektual mehnat ulushini, mehnatkashning ijodiy funktsiyasini, uning professional

harakatchanligini oshirishga olib keladi va, albatta, o'quvchilar maktabda olishlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar tizimini o'zgartirishga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda boshlang'ich sinfda ta'lim jarayoniga axborot ta'lim texnologiyalarini yanada jadal joriy etish zarur. Boshlang'ich sinflarda o'quvchining qobiliyatini rivojlantirish ko'plab omillarga, shu jumladan, o'quv materialining uning idrok etishi uchun qanchalik vizual va qulayligiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni deyarli yangi axborot texnologiyalarini rivojlantirishning zamonaviy darajasiga mos keladigan elektron qo'llanmalar bilan ta'minlangan. Natijada, vaqt ruhiga mos keladigan bunday imtiyozlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur bo'ladi. Multimedia va gipermedia texnologiyalari ushbu vazifani bajarish uchun keng vositalar va usullarni taqdim etadi.

Bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinfdagi ta'lim jarayonida axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanish har qanday darsda bo'lishi mumkin. Masalan, matematika darslari. Axir, matematika darslari kichik maktab o'quvchilarida mekansal fikrlashni shakllantiradi va rivojlantiradi, matematikada darslarda axborot ta'lim texnologiyalari qo'llanilsa, e'tiborni, xotirani faollashtiradi.

Biz umumta'lim maktabining 4-sinfidagi o'qitiladigan fan darslarida yuqorida ko'rsatilgan axborot texnologiyalarini qo'llashga harakat qildik. Vazifalarning elektron versiyasi o'quvchilarga o'z javoblarini mustaqil ravishda tekshirishga imkon beradi, shuningdek, multimedia texnologiyalaridan foydalanish (jonli rasmlar) mekansal fikrlashni shakllantiradi va o'quvchilarga mavzuga qiziqish uyg'otadi.

Bugungi kunga kelib, tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kompyuter sinflari doirasi, jihozlar darajasi va shaxsiy kompyuterlarning miqdoriy tarkibi bilan cheklangan. Shuni ham unutmaslik kerakki, boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar axborot texnologiyalaridan foydalanishlari kerak va bu bo'yicha mas'ul mutassadi tashkilotlar imkon darajada ta'minlab berishi zarur.

Shunday qilib, "axborot ta'lim texnologiyasi" kontsepsiyasining paydo bo'lishi ta'limdagi kompyuterlarning paydo bo'lishi va keng joriy etilishi bilan bog'liq. Axborot texnologiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: dasturiy ta'minot, aqlli ta'lim, ekspert tizimlari, gipermatn va multimedia, mikrokompyuterlar, simulyatsiya o'qitish, namoyishlar. Ushbu maxsus metodlar o'quv maqsadlari va o'quv sharoitlariga qarab qo'llaniladi, ba'zi

hollarda o'quvchining ehtiyojlarini yanada chuqurroq tushunish, boshqalarda esa — mavzu sohasidagi bilimlarni tahlil qilish va hisobga olish kerak.

O'quv jarayonida axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni o'quv jarayonining ma'lum jihatlarini avtomatlashtirish, ma'lumotni qog'ozdan magnit tashuvchilarga odatiy o'tkazish bilan aralashtirib yubormaslik uchun yangi axborot texnologiyasi haqida faqat quyidagi hollarda gapirish mumkin:

- * bu pedagogik texnologiya asosiy tamoyillarga javob bersa (Pre-dizayn, tekrorlanabilirlik, mustahkamlik, ta'lim, yaxlitligi);

- * bir sabab yoki boshqa sabablarga ko'ra ilgari hal qilinmagan muammolarni hal qilsa;

- * ta'lim oluvchiga axborotni tayyorlash va uzatish vositasi faqatgina kompyuter bo'lsa.

Shunday qilib, boshlang'ich maktabning o'quv jarayonida axborot texnologiyalarining malakali qo'llanilishi o'quvchilarning nazariy fikrlashlarini rivojlantirishga, mamlakatimizda ta'lim jarayonining haqiqiy integratsiyasini va bunday tizimlar uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan eng rivojlangan G'arb davlatlarini rivojlantirishga yordam beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Axborot ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini gipermatnli va hipermedia havolalari, grafikalar, rasmlar, animatsiyalar, videofilmlar va audio yozuvlarni o'z ichiga olgan eng yangi media vositalaridan foydalanib to'ldirishga imkon beradi. Shu sababli, boshlang'ich maktabda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning fikrlash, idrok va bilim faolligini oshirishga yordam beradi deb taxmin qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromov A. A. Improvement of action based games for young learners // Theoretical & applied science. – 2020. – №. 2. – c. 170-173.
2. Ikromov A. A. THE INFLUENCE OF GAMES ON THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL AND PHYSICAL ACTIVITY FOR PRESCHOOL CHILDREN // Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 3. – №. 4. – C. 324-328.
3. Aminovich I. A. Mastering of Motion (Action Based) Games for Primary School Pupils by Using Information and Communication

- Technologies //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 3. – C. 5-8.
4. Ikromov A. History of national outdoor games and their value in education of harmoniously developed generation //Young Scientist USA. – 2014. – C. 43-47.
 5. Aminovich I. A. Research Activities in the Modern Educational Environment //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 15. – C. 244-248.
 6. Numondjonovna D. G. The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
 7. Davranova G. COLLABORATION BETWEEN KINDERGARTEN AND FAMILY //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
 8. Numondjonovna D. G. The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 7. – C. 28-31.
 9. Numondjonovna D. G. The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 7. – C. 28-31.
 10. Numondjonovna D. G. et al. The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 54-57.

- 
- 1.
 - 2.
 - 3.
 - 4.
 - 5.
 - 6.
 - 7.

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI VA MILLIY FALSAFA: DIALEKTIK ALOQADORLIK VA MA'NAVIY YANGILANISH

SHARIPOV ABDUXAKIMJON
ZIYOITDINOVICH

*Falsafa fanlari doktori (DSc), dosent,
Buxoro davlat pedagogika instituti.*

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichida qat'iyat bilan davom ettirilayotgan islohotlar bosqichida Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini qurishda o'zbek milliy falsafasining o'рни, taraqqiyot strategiyalari bilan aloqadorligi va hamohangligi ilmiy tahlil etilgan. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida mamlakatimizdagi yangilanish va islohotlarning g'oyaviy asoslarini tadqiq etish, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanmish yoshlarning bilim va iqtidori, kuch va imkoniyatlarini yanada ro'yobga chiqarish kabi ezgu harakat umumilliy ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, ijtimoiy islohotlar konsepsiyasi, milliy falsafa, o'zbek falsafasi, yangi O'zbekiston, ma'naviy qadriyatlar tizimi

NEW UZBEKISTAN DEVELOPMENT STRATEGY AND NATIONAL PHILOSOPHY: DIALECTIC RELATIONSHIP AND SPIRITUAL RENEWAL

Abstract: In this article, the role of Uzbek national philosophy in the construction of New Uzbekistan, the foundation of the Third Renaissance, its connection and coordination with development strategies are scientifically analyzed. Based on the principle of "from the strategy of actions to the strategy of development", the noble movement of researching the ideological foundations of renewal and reforms in our country, further realizing the knowledge and talent, strength and opportunities of the youth, which is considered its main driving force, is gaining national importance.

Key words: action strategy, development strategy, concept of social reforms, national philosophy, Uzbek philosophy, new Uzbekistan, system of spiritual values

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И НАЦИОНАЛЬНАЯ ФИЛОСОФИЯ: ДИАЛЕКТИЧЕСКАЯ СВЯЗЬ И ДУХОВНОЕ ОБНОВЛЕНИЕ

Аннотация: В данной статье научно анализируются роль узбекской национальной философии в строительстве Нового Узбекистана, основание Третьего Возрождения, ее связь со стратегиями развития, ее согласованность. Основанное на принципе «от стратегии действий к стратегии развития» благородное движение исследования идеологических основ обновления и реформ в нашей стране, дальнейшего осознания знаний и таланта, силы и возможностей молодежи, которое считается ее главной движущей силой, приобретает общегосударственное значение.

Ключевые слова: стратегия действий, стратегия развития, концепция социальных реформ, национальная философия, узбекская философия, новый Узбекистан, система духовных ценностей.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida olib borilgan islohotlar natijasida Yangi O'zbekistonni barpo etishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi [6.]. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholi farovonligini yanada yuksaltirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror taraqqiyotni ta'minlashning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari hamda bu boradagi dolzarb vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 yanvar 2022-yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonida belgilab berildi [7:14-17; 12.]. Ushbu Taraqqiyot strategiyasi keyingi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlar uchun dasturilamal bo'ladi, "inson qadri uchun" tamoyilini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Hayotning barcha sohalaridagi yangilanish va ulkan o'zgarishlar bilan birga, tom ma'nodagi ma'naviy yuksalish davri boshlandi. Dunyoqarashni tubdan o'zgartirishga yordam beradigan ijtimoiy fanlar, jumladan falsafani yangilash va yanada rivojlantirish islohotlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Har bir xalqning o'ziga xos ma'naviyati, tafakkur tarzi va falsafasi borligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Falsafaning umuminsoniy fan sifatida, nafaqat bashariyatga molik muammolarni qamrab olishi, balki muayyan xalqning o'ziga xos xususiyatlari, dunyoqarashi va milliy mentalitetini aks ettirishi ham qadimdan ma'lum. SHu sababli "Avesto"

zamonlaridan hozirgacha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan milliy falsafaning o'ziga xos jihatlari va namoyon bo'lish xususiyatlari, tarixiy va ma'naviy asoslari, zamonaviy mavzu va dolzarb masalalari bilan bog'liq ma'lumotlarni tizimli o'rganish zarurati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [8:49].

Ma'lumki, har qanday umuminsoniy mavzu va muammolar, avvalo, xususiy, milliy, mintaqaviy ahamiyatga molik, muayyan xalq hayoti, uning tarixi va takdiri, tafakkuri va dunyoqarashi bilan bog'liq masalalar tarzida namoyon bo'ladi. O'zbek falsafasi ham shunday, u ham xalqimiz bilan birga shakllangan, tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tib, muttasil yangilanib va takomillashib borgan. Bu esa, o'z navbatida, umuminsoniy fan bo'lgan falsafada milliylik, ya'ni biror bir xalq dunyoqarashi va tafakkuriga xos xususiyatlar muqarrar tarzda aks etishini anglatadi.

Qolaversa, falsafaning faqatgina metodologiya, ontologiya va gnoseologiya, ya'ni nazariy falsafadan iborat emasligi ham ma'lum. Bu, ayniqsa, jahon falsafasining mintaqaviy, milliy shakllari haqida gap ketganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu mavzuga oid ta'limot va qarashlar tahlili zaminimizda shakllangan falsafiy tafakkurning murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tganidan dalolat beradi. "Avesto" zamonlaridan boshlangan va qariyb uch ming yilni qamrab olgan bu jarayonda nomlari abadiyatga daxldor mutafakkirlar va allomalar yashab, ijod qildilar, turli falsafiy oqim va yo'nalishlar vujudga keldi. Nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyat uchun katta ahamiyat kasb etgan g'oya va ta'limotlar yaratildi. Garchand bu ma'naviy merosning shakllanishi va takomili xilma-xil davrlarda ro'y bergan bo'lsa-da, asl mazmun-mohiyatiga ko'ra u yaxlit va bir butun o'zbek falsafasi, ona zaminimizda yashagan barcha avlod va ajdodlarimizning umumiy qadriyatidir [5:12; 9:459].

Inson tafakkuri o'zgarishi, jamiyat dunyoqarashining yangicha tamoyillarga ega bo'lishi davomli va murakkab jarayondir. Haligacha "O'zbek falsafasi" mavzuida fundamental tadqiqotlar, kitoblar, o'quv va yordamchi adabiyotlar kamligi, shu nomdagi kafedra yoki ilmiy markaz faoliyatini yo'lga qo'yish va o'quv fani bo'yicha dasturlar hamda darsliklar yaratish zarurati saqlanib qolayotgani ham yaqin o'tmishdagi yo'qotishlarning ta'sirini ko'rsatadi. Xolbuki, inglizlarda "Ingliz falsafasi", nemislarda "Nemis mumtoz falsafasi", fransuz va ispanlarda, greklar va italyanlarda ham o'zining milliy falsafiy tafakkuri mavjud. Aslida ham shunday bo'lishi, muayyan millat o'z falsafasiga ega bo'lishi, uni chuqur

o'rganishi, dunyoqarashining asosiga aylantirishi, so'ngra esa, zarurat bo'lsa, boshqalarga ham tavsiya etishi va targ'ib qilishi mumkin.

Bu jihatdan, zamonaviy o'zbek falsafasi umumbashariy muammolarni o'rganish bilan birga, mustaqillikni mustahkamlash, taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohot va o'zgarishlarning asosiy tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va dolzarb vazifalarini aks ettirishi zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, bu borada inson va jamiyatni taraqqiyotga boshlaydigan ezgu g'oyalar mazmun-mohiyatini aholi, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga singdirish, jamiyatimizda yangi dunyoqarash va zamonaviy tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq nazariy va amaliy faoliyat ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda o'zining milliy falsafasi va taraqqiyot modelini uyg'unlashtirish, shu orqali rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilishga harakat qilayotgan xalqlar va davlatlar ko'p. Bu borada muayyan tajriba ham to'plangan. Bugungi kunda "xitoy falsafasi", "hind falsafasi", "yunon falsafasi", "ingliz falsafasi", "fransuz falsafasi" yoki "nemis falsafasi" atamalariga o'rganib qolganmiz. Bu falsafa maktablarining har biri insoniyat sivilizasiyasi haqida o'ziga xos yondashuvlari qatori o'z xalqining betakror qiyofasi, milliy an'analari, mentaliteti va ma'naviyatini aks ettirishi bilan ana shunday e'tirofga sazovor bo'lgan [1:23].

Aslida, uch ming yil ilgari "Avesto"dek asarni dunyoga keltirgan yurtimiz falsafasining ildizlari Xitoy yoki Yunoniston, Misr va Hindiston falsafalari kabi qadimiy ekaniga shubha yo'q. Ilm-fan tarixida "Xorazmiy asri", "Farg'oniy asri", "Beruniy asri", "Ibn Sino asri" degan e'tiroflar, Sharq xalqlari orasida esa "Samarqand - yer yuzining sayqali", "Buxoro - islom dinining qubbasi" kabi iboralar ham bejiz paydo bo'lmagan. Xorazm Ma'mun akademiyasi yoki Ulug'bek asos solgan akademiya, o'z davrida, nafaqat aniq fanlar, balki falsafa akademiyalari bo'lgani ham isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. SHu ma'noda milliy falsafamiz tariximiz kabi qadim, ma'naviyatimiz kabi teran, deb aytish uchun barcha asoslar bor [14:48].

"O'zbek falsafasi" tushunchasi xalqimizning falsafiy tafakkuri, ongi va dunyoqarashining rivojlanish bosqichlari, tushuncha va kategoriyalari, ma'naviy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi, qadimgi zamonlardan shakllanib, bugungi kungacha yetib kelgan ilmiy-falsafiy meros, u bilan bog'liq jarayonlar, shu sohadagi g'oyalar, nazariya va

ta'limotlar majmuini anglatadi. Bundan tashqari, u mustaqillikka erishgan xalqimizning bugungi taraqqiyot yo'li va rivojlanish tamoyillari, "inson qadri uchun" tamoyili asosida ushbu jarayonning falsafiy, ma'naviy omillari, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari ta'sirida aholining ongi va tafakkurida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ham o'zida aks ettiradi. Bunda har birimizning ma'naviy qiyofamiz, tarbiya va kamolotimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, jamiyat va shaxs dunyoqarashini shakllantiradigan, milliy tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan, xalqimiz taqdiri va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan falsafiy tamoyillar, tushuncha va kategoriyalar tizimi tushuniladi. Ularning mohiyati va ahamiyatini anglash har bir yurtdoshimiz qalbi va ongida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash tuyg'usini mustahkamlaydi, ajdodlardan meros qolgan ezgu g'oyalarga munosib bo'lish, Vatan istiqboliga umid bilan qarashga undaydi.

O'zbek xalqi tarixi davomida asta-sekin shakllangan va takomillashib borgan o'zbek falsafasining muhim bir funksiyasi vatandoshlarimiz tafakkuri, xalqimiz dunyoqarashi va ma'naviy taraqqiyotining muayyan davrda qay darajada ekanligi, ularning ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, bugungi kunda hammamiz uchun qadri va ahamiyati nihoyatda yuksak bo'lgan "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renesans poydevori" "inson qadri", "xalqparvar davlat", "halq roziligi" kabi tushunchalar to'g'risidagi falsafiy tasavvurlarimiz keyingi yillarda shakllandi, mazmun-mohiyati va ahamiyati aniqlashdi, hayot bilan uyg'un tarzda takomillashib, tafakkurimizga singib bordi. SHu tariqa ular g'oyadan amaliyotga ko'chdi, dunyoqarashimiz va tafakkurimizni boyitdi, barchamiz uchun yuksak qadriyatlarga aylandi [3:127].

Bu borada ta'kidlash lozimki, insoniyat tarixi xalqning milliy davlatchiligi barqaror bo'lgan va ma'naviy salohiyati yuksaklikka ko'tarilganida, ko'plab sohalar qatori, uning falsafasi ham jadal rivojlangani va, aksincha, davlatchiligini boy bergan va tanazzulga uchragan davrlarida milliy falsafaning turg'unlikka uchragani yoki ahamiyatini yo'qotib qo'ygani ko'p bor guvoh bo'lgan. SHu ma'noda, "o'zbek falsafasi" tushunchasining mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish xususiyatlari va takomil bosqichlarini xalqimiz tarixi, milliy davlatchilik an'analari, ma'naviy qadriyatlari, ruhiyati va tafakkur tarzidan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Mazkur tushunchani bunday talqin qilish, o'z navbatida, xalqimizga xos falsafaning namoyon bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayonida, o'tmishdan kelajakka tomon takomillashib va yangilanib

turishi, ya'ni etnoijtimoiy hodisa sifatidagi harakatini, zamonlar almashinuvi bilan bog'liq o'zgarishlar jarayonini tahlil qilish imkonini yaratadi.

Masalan, mamlakatimiz demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish, jahonning eng ilg'or mamlakatlari qatoriga qo'shilish borasida o'ziga xos milliy taraqqiyot yo'li - "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" konsepsiyasini amalga oshirmoqda. Bu jarayonda xalq mentaliteti va mavjud shart-sharoitlar hisobga olingani, islohotlarning inson manfaatlari va haq-huquqlari, uning jismoniy va ma'naviy yuksalishi, jamiyatdagi barcha qatlamlarning ehtiyojlari va xalq farovonligi g'oyasiga xizmat qilishi ushbu strategiyaning falsafiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Biz ana shu nazariyani, bir tomondan, taraqqiyotimizning o'zimizga xos va mos modeli, deb ataymiz. Ikkinchi tomondan esa, uni mamlakatimiz hayotini tubdan o'zgartirayotgan, uning bugungi kuni va kelajagini belgilab bergan, xalqimiz ongi va ma'naviyati rivojida muhim o'rin tutayotgan umumfalsafiy tayanch-metodologiya, deb bilamiz. Shu ma'noda, uning asosiy tushunchalari va ustuvor tamoyillari bugungi o'zbek falsafasining o'ziga xos xususiyatlari va yo'nalishlarini belgilaydi hamda milliy tafakkur yangilanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda, ayniqsa, tarixiy xotira va o'zlikni anglash, xalqimizning boy madaniy merosi va asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarini asrab-avaylash, jismonan sog'lom, ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash bilan bog'liq sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, o'zbek falsafasining yangilanish jarayoni nihoyatda serqirra hodisa bo'lib, u avvalo, taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tayotgan mamlakatimizdagi tadrijiy o'zgarishlarning tarkibiy qismi, milliy falsafa rivojidagi yangi bosqich, bugungi davrga xos dunyoqarash va tafakkurdagi takomillashuv, inkor va yangilanish jarayonidir. Bu tasodifiy va o'tkinchi hodisa emas, balki, Uchinchi renesans poydevorini yaratish yo'lidan sobitqadamlik bilan borayotgan xalqimiz uchun tarixiy zarurat, jamiyatni tubdan isloh qilish, yangi avlod kishilarini tarbiyalash va zamonaviy tafakkurni shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Dialektik ma'noda, bu - inkor va yangilanish, vorislik va o'zgarish jarayoni bo'lib, bizning mamlakatimizda u demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish va Yangi O'zbekistonni barpo etish davriga to'g'ri kelmoqda. Bunda, bir tomondan, o'zbek falsafasida azaldan mavjud

bo'lgan va hatto ne-ne istilolar ham yo'qota olmagan ilg'or jihatlarining saqlanib qolishi, ikkinchidan, yaqingacha ustuvor bo'lgan "davlat-jamiat-shaxs" tamoyillarning o'tmishga aylanib, inkor etilishi va, uchinchidan, xalqimiz falsafiy tafakkuridan asta-sekin joy egallab borayotgan yangilanishlar o'z aksini topmoqda.

Hozirgi kunda jahon taraqqiyotining ustuvor xususiyatlariga aylanayotgan globallashuv jarayonlari, keng miqyosli integrasiya, fan-texnika hamda axborot texnologiyasining beqiyos rivojlanishi ham sohaga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy o'zlikni saqlash, xalqimizning azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga omon-eson yetkazish, miqyosi har yili ikki marta kupayib borayotgan son-sanoqsiz axborotlar dunyosida adashib qolmaslik, bu borada ham "oq va qora"ni ajrata olish ko'nikmasini shakllantirish nihoyatda dolzarb.

Bugungi kun voqeligi bu sohadagi o'zgarishlar jarayonini jadallashtirayotgani, milliy falsafaning xalqimiz tanlab olgan taraqqiyot tamoyillari bilan hamqadam bo'lishi, hayotdagi islohotlar va o'zgarishlarni aks ettirishi zarurligini davr talabiga aylantirgani shubhasiz. Bu borada ham umuminsoniy fan bo'lgan falsafaga xos tarixiy an'analar, tendensiyalar bilan birga, bugungi hayotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va tub o'zgarishlarning ta'siri, davr talablari va yangilanish jarayoni yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, hech bir milliy falsafa mavhumlik va hayotdan yiroqlik tamoyili bilan kelisha olmaydi. Chunki u har qanday holda ham, milliy falsafa xalqqa yaqin va tushunarli bo'lishi, uning o'ziga xos xususiyatlari va maqsad-muddaolarini, tafakkuri va dunyoqarashini, ruhiyatidagi o'zgarishlarni, taraqqiyot tamoyillari va yangilanish jarayonlarini aks ettirishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, bobolarimiz asl falsafani ilmi hikmat deb ataganlari, ya'ni hayotning ma'nosi, mazmuni va maqsadi haqidash hikmatlar majmui sifatida ta'riflaganlari bejiz emasligidan dalolat beradi. Ushbu fanni dunyoga keltirgan qadimgi zamon mutafakkirlari esa, uni nafaqat donishmandlikni sevish, balki haqiqatga va komillikka erishish vositasi sifatida talqin qilganlari ham tasodif bo'lmagan. Ularning nazdida, falsafa hayotning in'ikosi, uning yo'nalishlari esa xalq tafakkuri va dunyoqarashida aks etadigan tushuncha va kategoriyalar, qonunlar va tamoyillar majmui sifatida davr talablariga jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti bilan bogliq ijtimoiy ehtiyojlarga javob berishi zarur. Aslida, bu falsafa uchun hamma zamonlarga xos umumiy talab, mazkur fan sohasining eng ustuvor hayotiy tamoyilidir

Xullas, masalaga dialektik yondashuv va zamonaviy munosabat bo'lmasa, ya'ni biz o'rganayotgan falsafa milliy taraqqiyot modeliga uyg'unlashmasa va xalqimiz hayotining ma'nosi, mazmuni va maqsadini ifodalamas, o'zining barcha tarkibiy qismlari va yo'nalishlari bilan birga, mavhum va hayotdan yiroq tushuncha hamda kategoriyalar majmui bo'lib qolaveradi. Hayotiy jarayonlar bilan uyg'un va hamohang bo'lmagan, faqat darsxonalar doirasida qolib ketadigan falsafani va jamiyatdan uzilib, shaxsiy dunyoqarashi doirasidan chiqolmaydigan mutaxassisni o'z vazifasi va ijtimoiy mas'uliyatini to'g'ri angelayapti, deyish qiyin. Faqat falsafa nazariyasini egallash, falsafiy tushuncha va kategoriyalar mazmunini bilishning o'zigina hayot talablarini bajarish uchun yetarli emasligi ma'lum. Bilish hali masalaning mohiyatini to'g'ri tushunish, o'qish esa uni to'la anglab olish bo'lmagani kabi, falsafa asoslarini nazariy o'rganish ham bu fanni bevosita hayotda qo'llashda muvaffaqiyatga erishishni anglatmaydi.

Ilgari qayd qilingani kabi, alloma Suqrotning bundan ikki yarim ming yil ilgari "O'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avvalo, o'zini o'zgartirishi lozim" degan fikri bu borada ham hayot haqiqatini aks ettiradi.

Milliy falsafaga ta'sir etuvchi global, texnokratik va boshqa zamonaviy omillarning kuchayib borishi, insoniyat taraqqiyoti bilan birga, uning ma'naviy asoslariga tahdid va tajovuzlarni ham vujudga keltirmoqda. Bu esa ushbu xavf-xatarlarga qarshi ogoh va hushyor bo'lish, falsafiy tarbiyani yanada samarali bo'lishiga erishish, mutaxassislarning ongi va tafakkurini zamon talablariga moslashib borish zarurligi bugungi kunning dolzarb masalalariga aylangani, barchamizga daxldor, nihoyatda muhim va mas'uliyat bilan yondashuvni talab qiladigan vazifalar ekanidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q. Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2019. – 182 b.
2. Sharipov A. Interrelationship of social stratification and social cooperation in western philosophy // European Journal of Business & Social Sciences. - Volume 07. Issue 05. – RR.593-595
3. Sharipov A.Z. [Milliy g'oyani rivojlantirish va ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasida ma'rifiylik va dunyoviylik tamoyillarining o'ziga xosligi // Samarqand davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi.-Samarqand, 2021.-№ 4 \(128\).](#)

4. Sharipov A.Z. [Social stratification processes and social cooperation during globalization](#) // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2020. -№2/4. -B.240-247
5. Jo'raev N. Tamaddunga da'vat taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. –264 b.
6. Mipziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sapi. –Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 456 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.
8. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. –Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – 920 b.
9. Nazarov Q.N. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob – Toshkent: "Ma'naviyat", 2019. – 924 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son Qarori / QMMB, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28 yanvar 2022 yildagi PF-60-son Farmoni / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
13. Sharipov A.Z. [Jamiyat modernizatsiyalashuvi jarayonida milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi // Falsafa va hayot. Xalqaro jurnal.-Toshkent, 2021.-№ SI-2.-B. 144-152](#)
14. Sharipov A.Z. [Yangi O'zbekiston mafkurasi: ezgulik g'oyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili // Falsafa va huquq.-Toshkent, 2021.-№ 1.-B. 193-197 \(09.00. 00;№ 15\)](#)
15. Yaxshilikov J.YA., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. – Toshkent: CHO'lpon, 2018. – 684 b.

DITAKTIK ASARLARDA OILAVIY MUNOSABATLARNING SHAXS MA'NAVIY YUKSALISHIDA O'RNI

GULCHEHRA VALIREYEVA
IZBULLAYEVNA

*Buxoro davlat pedagogika instituti,
pedagogika, psixiologiya va texnologik ta'lim
kafedrası dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha
falsaf adoktori (PhD).*

Anotatsiya: Ushbu maqolada 13-asr Markaziy Osiyoda yaratilgan didaktik asarlarda keltirilgan oilaviy munosabatlar yoritilgan. Jumladan, er va xotin munosobatlari oila mustahkamligini saqlashda er va xotinning vazifalari, ayol sadoqati bayoni keltirilgan bo'lib, uning bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan

Kalit so'zlar: Mard kishi, qiz iffati, ona mehri timsoli, so'fiy ayol, fozila ayol

РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОСТНОМ ДУХОВНОМ РОСТЕ В ДИДАКТИЧЕСКИХ РАБОТАХ

Аннотация: В данной статье описываются семейные отношения в дидактических произведениях, созданных в Средней Азии в XIII веке. В частности, роль мужа и жены в поддержании крепости семьи в отношениях между мужем и женой, утверждение женской верности и ее значение в наши дни.

Ключевые слова: мужественный мужчина, девственность, материнская любовь, суфийская женщина, знатная женщина.

THE ROLE OF FAMILY RELATIONS IN PERSONAL SPIRITUAL GROWTH IN DIDACTIC WORKS

Annotation: This article describes family relationships in didactic works created in Central Asia in the 13th century. In particular, the role of husband and wife in maintaining the stability of the family in the relationship between husband and wife, a statement of female loyalty, and its importance today.

Keywords: brave man, virginity, motherly love, Sufi woman, noble woman

The tool that forms the basis of the family relationship in social life is the male-female relationship. A husband is a man who is in a marriage

contract with a woman. A brave, noble, courageous man. A woman is a family, a wife, a person of the opposite sex to a man in general. In this sense, it is mainly used in the plural form, meaning to generalize, and to mean 'women'. Or a mature person (relative to a girl), a partner, a wife (relative to a husband).

In Attar's works, the image of a poor, old woman is called «momo» are embodied in the stories of «An old woman asks for blessings from Sheikh Mihnai», «The falcon and the old woman», «Someone asked an old woman what happened to her», «The story of Sultan Mahmud and the old woman», «A sad old woman». The author speaks of her devotion, piety and faith through the image of an old woman. It depicts the image of a woman stronger than all obstacles and even the most powerful kings on earth.

Attar narrated by «the wives of the Prophet (s.a.v.)» [5; 246] describes the conflict that arose as a result of the comparison between women, the problem that arose due to their measurement of the amount of attention and respect, and how the Prophet (peace and blessings of Allaah be upon him) faced and solved this problem. According to the story, one day his wife came together and asked the Messenger of Allah: O Lord of the universe, who do you love more, who loves your heart more? If we only knew, we would all be happy. The Prophet said, «O my companions, be patient for the time being. Tomorrow I will give you all an answer... The next day, late at night, it was getting dark, he called each woman separately and gave her a ring hidden, not a ring, but an ointment. Then he said, «Keep the ring, my dear, but keep it a secret, and don't tell anyone,» and warned everyone not to reveal the truth. The night passed, the day became clear, the enlightened, the women came to the prophet. They asked a question and waited for an answer in silence, the prophet began, saying, «Whomsoever I give a ring to secretly, that is the most beloved soul to me.» The women listened and uttered the word, each one secretly rejoicing. Looking at each other, they rested, someone who did not know this secret but... Everyone said a secret in their hearts, but the secret was different with Aisha... Although the image of the wives of the great prophet is not described in detail in «Ilohiynoma» [10; 22], through this story Attar describes them as pure, immaculate, self-aware, and inspired by this situation, he describes them as children of the caliph on the path of truth as an example, a means of education, for each of them balance, humility , especially shows Aisha (r.a.) as an example of purity, devotion and piety. It

is clear from this that our mother Aisha always supported our Prophet in devotion and served him as a companion in his path.

In Attor's views, female loyalty comes first in maintaining family stability and is portrayed in a variety of contexts in a series of stories. In one story, a woman came to this Ali and handed him a blow. The sheikh said, «I have made a covenant and I will not take anything but Allah.» And the woman said to him, O Ali, where did this happen to you? Look through the eyes of a brave man, there is no indifference in it. She said that you did not see the covenant of courage on this path. In this story, the image of an enlightened woman who understands the essence of the Truth in her heart is depicted. This image of Ali is apparently described as a performer of the deeds of Truth. The story refers to an understanding of the essence of Truth from the inside out, not outwardly through the image of a woman.

Loyalty is synonymous with loyalty, friendship, solidarity, sincerity. This is the most noble spiritual and moral quality of man. Attor in his story «I have a God, I am not alone ...» [5; 346] describes the following views: there was a woman, she was chaste. Her husband went on a trip, leaving her alone. Someone said that your life is spent in solitude, so how is your life? The woman said no, I'm not alone. I have a God, I am not alone. I have everything in my life, even if I don't have a husband. My God always gives me a loaf of bread ... At the end of the story:

Oh, you compliment yourself as a husband,

Do you have the same faith as a woman? [5; 348] – it is said. This story depicts a woman's devotion not only to her family but also to God. She is described as a human being who does not violate her honor for a loaf of bread. Qualities such as faith, belief, gratitude, patience and perseverance in a woman have been shown to be an example to any man.

In fact, in our society, a woman is the dignity of every family, a person in need of protection. Attor in his story of «The Loyalty of a Pure Woman» [5; 475] tells the story of a woman who betrays her trust by misunderstanding her suffering and her need for protection. The story depicts a woman's devotion very impressively and politely, and is said to have risen to a higher status through her perseverance and courage. In every age, women and mothers shed blood for their families, and the quality that is found in every man is manifested in them. For example, the author describes the power of women:

Unless a spider is a smaller animal,

They get the bread of the lion's mouth for the child, [5; 357] – he says. This means that a woman's passion is so powerful that no resistance can affect her. That is why this courage must always serve high lofty purposes. A woman should always be a symbol of devotion.

In «Ilohiynomφ», in Attor's views, the image of a woman is depicted not only as an enlightened, courageous man, but also as a symbol of devotion to love. It has become a legend among the people described by the author [11; 42] «Yusuf and Zulayha» [5; 390] is an example of this. In this legend, Zulayho appeared in the image of a woman who was burning in the fire of love. She was willing to do anything to reach the vision of her lover, Joseph, because she was in pain to love him with all her being. The story describes how only a person who knows what devotion and self-sacrifice are in the path of love can find a sign in the secret of love.

The image of the female image by Attor is always expressed on the basis of the ideas of glorifying, honoring and respecting the woman. He describes whether a woman sees good or bad as a result of a change in the quantity and quality around her. No woman can instill evil in herself and the symbol of goodness is always hidden in her heart. For example, in the story «On the Good Deeds of a Bad Wife» [5; 445], the Prophet said, there was a wife, but she was unfaithful. On the way she came across a well in the desert and a dog walking around the well. The dog was thirsty, thirsty, he realized, he was hanging his tongue out of his mouth. The woman looked at the dog, took pity on him, sewed a handkerchief and a shoelace. She took water from the well and held it for the dog, so she showed mercy to Allah. That night of Me'raj I saw her, her face was the moon, heaven was her abode ... At the end of the author's story:

If you can $\pi\pi\pi\pi$ my enjoy to someone,

The reward is not one for you, but two worlds, [5; 445] – he says. So, in the story, it is stated that the only good deed of a woman is the cause of her being highly rewarded. In this way, the scholar emphasizes that a person should strive for good deeds and always do good deeds, no matter what aspect of life we are in.

In Saadi's work, the image of a woman is also glorified and is depicted in the image of kindness, purity, sanity, love and beauty. For example Saadi:

If a woman is sane,

though beggar, she will make her husband king, [8; 264] – he says.

The fifth chapter of «Gulistan» «Statement of love and youth» gives an

example of the image of Layli, a symbol of beauty and love in folklore: «You have to look at Layla through Majnun's eyes to see how much fun it is to enjoy her beauty!» [8; 109]. Indeed, every woman has her own beauty and to understand this beauty you need to look through the eyes of a man who appreciates it.

In the third chapter of «Boston» «About love» also there are the examples of love of Layli and Majnun, Farhod and Shirin [8; 206]. The image of Layla and Shirin is glorified as a symbol of love and affection.

In Tusi's «Akhlaqi Naziri», philosophical and social ideas such as family, family values, and social problems come to the fore. He emphasizes the following about a woman: «A good wife is a partner in wealth, greatness, housekeeping, and when the husband goes somewhere, she takes his place. The best wife is the one who is created with intelligence, piety, chastity, modesty, innocence, compassion and gentleness, obedience, obedience to her husband, self-sacrifice, friendship, and is considered to be honorable, respectful, and generous among her relatives. She should be able to cheer up her husband with her care, kindness, cheerful nature and kindness. [14; 80].

In «Akhlaqi Naziri» it is said that, the husband must use three methods to keep the wife after the marriage contract has been concluded and the marriage has been legalized. These are, first-management, second-prophecy, third-engagement. Here:

Management - it is said that the husband should be superior to the wife from the very first day, so that the wife does not allow any negligence in carrying out his commands and following his instructions;

Prophecy (generosity, tolerance) - it is said not to deprive a woman of what has earned her love and compassion. She focuses on household chores for fear of losing them, stays attentive to her husband's word, and thus has kindness and discipline in the family;

To be busy (to do something, to be busy) - it is said that a woman should always be busy with the house, tidying it up, paying attention to the household utensils, and so on; let not the human soul be inclined to laziness and fail to see what is necessary and what is not necessary [14; 120].

Nosiriddin Tusi states in «Akhlaqi Naziri» that a husband and wife should refrain from the following three things when keeping their wives:

The first is that if he dies of his wife's love, if he is insane from his love, if he loses his mind from his love, his wife shouldn't know about it, if

he cannot control himself, he should follow what is said about the measure of love. In any case, he must hide his love, otherwise more corruption can intensify.

The second is that he should not consult his wife in public affairs, should not give her his secret, and should keep a part of his property hidden from her, because the wrong advice they give does great harm.

The third is that his wife should not be allowed to make friends with naughty women, especially those who talk about men's flirtations, and of course they should not be allowed to enter the house. Such cause many great misfortunes. The most dangerous are the narrations of the elders who are in human meetings [14; 160].

Wives, too, must adhere to five conditions in order to be worthy of their husbands and to maintain their dignity: The first is to be chaste; The second is to be agree; The third is fear; The fourth is to perform the duty of a good wife and not to break her husband's word; The fifth is to be less demanding in the midst of pleasure. [14; 162].

From the words of philosophers in «Akhlaqi Naziri» the following sentence is quoted: a good woman is a mother, a friend and a concubine; and the wicked wife is like a tyrant, an enemy, and a thief. A gifted woman is likened to a mother who wants to be with her husband, misses him when he goes on a journey, endures the pain of fulfilling his dreams and desires, and the mother does the same for her offspring.

A friend is likened to a husband who agrees to what he gives, apologizes for not giving, does not withhold his property from him, and does not confront him anywhere.

The reason she looks like a concubine is that she doesn't spare what she can in caring, she endures husband's rebuke, covers his guilt, does not lose his definition, his manners, and does not do things that her husband does not like.

An incompetent wife is like a tyrant who does not like to work, is quarrelsome, accuses and slanders lies, often goes out of her way, does not know what her husband likes and dislikes, and does not give pleasure to.

The reason she looks like an enemy is that she insults her husband, humiliates him, throws dust at him, makes blatant accusations, acts against him by complaining, and spreads her guilt to the world.

She is like a thief because she betrays her husband's property, wants money unnecessarily, squanders her wealth, keeps away what she needs,

sheds friendly tears on the outside, and puts her own interests above hers on the inside[14; 180].

Nasir al-Din al-Tusi said in the play that the Arab sages (philosophers) were obliged to avoid five types of wives, which are «hannana», «mannana», «annana», «kiyat al-Qafa», and «Khazra ud-Daman».

«Hannana» is said to be a woman who has a child from another man and is kind to them with the condition of her new husband.

«Mannana» is said to be a woman who is grateful to her husband for her state.

«Annana» - a woman who used to live very well, or had a very wealthy husband, who constantly complained about his condition and husband

«Qiyat al-Qafa» is such an immoral woman who says that if her husband goes out to do something, she will find someone else and will discredit her husband.

«Khazra ud-Daman» is said to be a beautiful wife, who was called «green dung» [14; 185].

Jalaliddin Rumi's spiritual legacy also places a high value on women. He portrays the woman as a symbol of good and evil. While Mawlana describes a group of women in terms of wisdom, he embodies a group of women in the image of lust, and he says:

Lust is busy looking for a solution like a woman,
Sometimes it's low, sometimes it's high [14; 88].

In the Masnavi, Rumi compares the lust to the mother of man and the mind to the father of man, and manages to express his opinion truthfully by describing the frequent disputes between husband and wife. It says that a loving mother does not even want to send her child to school because she does not want to take her child out of her arms. The father, on the other hand, seeks to send his child to a serious and strict school in order to bring him up well and to lead him to maturity. Rumi refers to the hadith and says:

As my heart is, so am I.
Under the feet of mothers is a demon.

Parents are the heart of the people,

Blessed is he who sees the heart [7; 225], - he says. Mevlana praised the woman and praised her:

The Prophet said: of course wife

Wins on wise men always.
Every time a woman is defeated by ignorance,
Because they are different animals, not husband
Few of them have mercy and grace,
That is why it is like an animal.
Mercy is a human being,
Anger and lust are characteristic of animals.
The miracle of truth is a woman, not a lover,

It is as if he is a creature, not a devil [7; 82]. Mevlana puts an end to the subject with this magnificent expression: Woman is the light of Truth, not just a lover. She is as creative, not created. In this regard, let us pay attention to Jalaliddin Rumi's letter to his son about raising a woman to heaven and protecting her: «Today, on your wedding day, I entrust you with the care of Fatimabonu, the light of my eyes and my heart, for this is a great test for you. The hope is that you will always treat her fairly and will not withhold your generosity from him. If you want to be bright and clear your father's forehead, your own forehead, the names of your children, every day you should spend with your wife as it is a day of wedding, every night as a wedding night.. You will always hunt her with the snare of your heart ... »[6; 91]. The responsibility of being married, that is, of being married, is so described here that a boy who is stepping into a new life will pass this great school. Rumi said, «What do you mean saying «wife»?» Yes, that's as the world. Whether you say it or not, she will not leave herself. Your nonsense can only hurt. For example, take a loaf of bread and hide it in the body, saying, «I will never give it to anyone, nor will I show it to anyone!» tell me The more you are greedy, the more people will crave bread. They fall into begging, persecution, insults. In the same way, the more you tell your wife to hide from others, the more people will want her, and she will want to show off to people, because what is forbidden attracts a man... You think you are sitting quietly, but you are unaware that you are lighting a fire of passion with your own hands around you. If the seed of goodness is sown in her heart, whether you forbid it or not, she will follow the path of goodness. So don't bother! Unless otherwise stated, she will not rest on her laurels, and your persecution will only intensify his desires. You argue with her day and night and try to fix it. However, this test was not given to you in vain, it was given to you to purify your own mud with its help. Accept her blessings, find a way to her heart, and surround him with your kindness. Then you will be free from the jealousy of men. It has

been said: «Husbands are superior to women» (Surat al-Qur'an, 34). Ignorant people are really superior to women, because they are rude and forgiving, they have little mercy, compassion, love, kindness and benevolence. In their nature, animals dominate. Love and kindness are human feelings, anger and greed are animal feelings. Women, who have the minds and hearts of men, are many times superior «[6; 91], - he says.

In the content of didactic works, the image of an old woman (grandmother), mother, daughter, woman, bride, who has a high place in society, is very well described. Especially in the image of a Sufi woman are understood women who have a place in society in social, spiritual, enlightenment. The views of the sages show that such qualities as faith, belief, gratitude, patience and perseverance in a woman can be an example to any man. Through the image of the old woman, she portrays a woman whose devotion, piety, and faith are stronger than all obstacles and even the most powerful kings on earth. The image of a woman is distinguished by the involvement of society in all socio-spiritual relations, it is embodied in the chapter of devotion as a symbol of progress, wisdom, perseverance, faith, purity, courage.

The woman has held a high position in every era. Verses about her are quoted in the Qur'an, and they are exalted in the Hadith. The strength of the family ensures the stability of society. If the marriage is pure, voluntary, as well as based on the requirements of the law, the status and prestige of the family will be high. And the children of such a family will grow up to be perfect people.

References:

1. Авфий Мухаммад. Рашкчи эрни жазолаган хотин. Форс тилидан И.Низомиддинов ва Т.Файзиев таржимаси. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2012. – p. 122
2. Дехлавий, Амир Хусрав. Ёр васли /Амир Хусрав Дехлавий; тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов. – Т.: O'zbekiston, 2011.- p.83
3. ИСЛОМ энциклопедияси. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2004. - p.245
4. Кайковус. Қобуснома /форсчадан Мухаммад Ризо Огаҳий тарж.; нашрга тайёрловчилар. С.Долимов, У. Долимов. – Т.: «O'qituvchi», 2011. – p.208. 36
5. Нишопурий, Шайх Фаририддин Аттор Достонлар «Мантиқ ут-тайр», «Асрорнома», «Илоҳийнома», «Панднома», «Булбулнома», «Уштурнома» / Шайх Фаририддин Аттор Нишопурий; Форсийдан. Жамол Камол таржимаси. Масъул муҳаррир А.Саидов, – Т.: «Tamaddun», 2012. – p.434

6. Радий Фиш. Жалолиддин Румий: Тарихий биографик роман /Русчадан Ж.Камол тарж. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – p.272
7. Румий Жалолиддин. Маснавийи маънавий /Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол тарж. – Т.: «MERIYUS» ХНМК. 2010. – p.340.
8. Саъдий. Гулистон. Бўстон: тўплам / нашрга тайёрловчи Ҳ.Ҳомидий; таржимонлар: Ғ.Ғуломов, Ш.Шомухамедов, Р. Комилов, Чустий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёти-матбаа ижодий уйи, 2013. – p.264
9. Фирдавсий Абулқосим. Шохнома: дoston / Абулқосим Фирдавсий; Форсийдан Ш.Шомухамедов, Ж.Жабборов, Назармат, Ҳ.Ғулом тарж. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – p.736
10. Худжова Мавжуда Ураковна. Образы женщин в «Илохинаме» и «Хусравнаме» Фаридууддина Аттара: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.01.03. – Душанбе, 2006. - p.22
11. Шиммел Аннемарие. Жонон менинг жонимда; Ислом оламида хотин қизлар сиймоси. – Т.: «Шарқ» нашриёти, 1999. – p.42
12. Rabgʻuziy, Nosiriddin. Burhoniddin. Qissasi Rabgʻuziy/ Nashrga tayyorlovchi B.Abdushukurov. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – p.86
13. Tusi Xacə Nəsirəddin. Adabül-mütəəllimin (Tələbəlik mədəniyyəti). Bakı: Nurlan, 2002. – p.16
14. Tusi Xacə Nəsirəddin. Əxlaqi-Nasiri. / Farscadan tərcümə edəni, ön sözü və şəchlərin müəllifi: Rəhim Sultanovun. – Bakı, «Lider Nəşriyyat», 2005. – p.80

BADIIY MATN TAHLILIDA SEMIOTIKA VA STRUKTURALIZMNING O'RNI

SAIDOVA RAYHONOV ABDUG'ANIYEVNA

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Buxoro davlat pedagogika instituti.*

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy o'zbek adabiyotini rivojlantirishga, jumladan, adabiyotshunoslikning jahon ilmida taraqqiy etgan metod va usullarini ilmiy tadqiqot jarayoniga tatbiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolada badiiy matn tarkibidagi belgilarning paradigmatic, sintagmatic va zid munosabatlarini, ularning badiiy matn yaxlitligini yuzaga keltirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, matnlararo aloqabog'lanishlarni oydinlashtirish, badiiy matnning semantik-morfologik xususiyatlari, belgi strukturasi, uning tarkibini tashkil etgan shakl va kontsept (bildiruvchi-bilinuvchi) munosabatlarini oydinlashtirish va shu asosda matnning yaxlit tizim ekanligi ko'rsatilib, undagi belgi strukturasi tarkibidagi bildiruvchi-bilinuvchi munosabatlari hamda bilvosita va bevosita aloqalar o'rganilib, badiiy matn tizimida binar oppozitsiyaning muayyan belgilar orasida sodir bo'lishi aniqlangan.

Аннотация. В условиях проводимых в нашей стране реформ большое внимание уделяется развитию современной узбекской литературы, в том числе применению в исследовательском процессе передовых методов и приемов литературоведения в мировой науке. В данной статье описываются парадигматические, синтагматические и противоречивые отношения персонажей художественного текста, их роль и значение в формировании целостности художественного текста, выяснении межтекстовых связей, семантических и морфологических особенностей художественного текста, структуры художественного произведения. характер, его форма и понятие. Показано, что текст представляет собой целостную систему, в которой изучаются означающее-известные отношения в структуре знака, а также косвенные и прямые отношения, а в системе художественного текста установлено, что бинарная оппозиция возникает между определенными признаками.

Annotation. In the context of the ongoing reforms in our country, great attention is paid to the development of modern Uzbek literature,

including the application of advanced methods and techniques of literary criticism in world science to the research process. This article describes the paradigmatic, syntagmatic and contradictory relations of characters in the literary text, their role and importance in the formation of the integrity of the literary text, clarification of intertextual connections, semantic and morphological features of the literary text, the structure of the character, its form and concept. It is shown that the text is a holistic system, in which the signifier-known relations in the structure of the sign, as well as indirect and direct relations, are studied, and in the system of literary text it is determined that binary opposition occurs between certain signs.

Kalit soʻzlar. Semiotika, strukturalizm, shakl, bilinuvchi, konsept, denotativ, konnotativ, tizim, sintagmatik, paradigmatic, matn, gʻayrimatn.

Ключевые слова. семиотика, структурализм, форма, известное, концепт, денотатив, коннотативный, систематический, синтагматический, парадигматический, текстовый, нетекстовый.

Keywords. Semiotics, structuralism, form, known, concept, denotative, connotative, systematic, syntagmatic, paradigmatic, text, non-text.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda rivojlangan mamlakatlarda yuzaga kelib shakllanishga ulgurgan strukturalizm, semiotika, hermenevtika sohalariga qiziqish kuchayib bormoqda. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki davr, jamiyat, hayot rivojlanib borganini sayin yangi, nisbatan mukammal taʼlimot, nazariyalarga ehtiyoj oshadi. Bu oʻrinda biz semiotika haqida fikr yuritish niyatidamiz.

Semiotika belgi haqidagi fan sifatida juda koʻp sohalariga kirib borgan. Taraqqiy etgan Gʻarb davlatlari oʻz siyosat, mafkura, dunyoqarash va taʼlimotlarini targʻib etishda belgi-buyum, belgi-suvrat kabilardan keng foydalanadilar. R.Bart "Mifologiyalar" nomli tadqiqotida koʻplab dalillar asosida bu fikrni isbotlab koʻrsatgan. Belgi haqidagi qarashlarni badiiy adabiyotga nisbatan qoʻllash katta samara berayotir. Chunki adabiyotshunoslikning tadqiq manbai boʻlgan badiiy matn (qisqartirgan holda matn deyish mumkin) boshdan oxir belgilar tizimidan iborat. Badiiy matndagi belgi alohida xususiyatlarga ega. U matnda ikki bosqichda oʻz-oʻzini namoyon etadi.

1-bosqich: nutq tizimi belgisi sifatida. F. De Sossyur nazariyasiga asosan nutq tizimidagi soʻz belgidir. Fikrimizni isbotlash uchun "badiiy" soʻzini tanlab olamiz. "badiiy" shakl sifatida b-a-d-i-i-y tovushlari yigʻindisidir. Ushbu tovushlar oʻz-oʻzicha lugʻaviy maʼno anglatmaydi.

Ular ma'lum bir tizimga kimgach(badiiy), voqelikni nafis san'at vositalari, usullari, obrazlari orqali ifoda etuvchi; tasvirlovchi ma'nosini anglatadi. Mazkur birlik badiiy matn doirasiga kimgandan keyin o'zini yangi bosqichda namoyon etadi. U faqat denotativ ma'no berish bilan cheklanib qolmay matn talabiga ko'ra ko'plab konnotativ ma'nolarni aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, Rolan Bart so'zlari bilan aytganda, "ikkinchi semiologik tizim" yuzaga keladi. Bizning badiiy matn tadqiqiga bag'ishlangan bu ishimiz aynan ikkinchi semiologik tizimga asoslanadi.

Birinchi semiologik tizimdagi ma'no konsept deb ataladi. Ana shu konsept ikkinchi semiologik tizimga kimgach, yana shaklga aylanadi. Mazkur shakl bilinuvchi, undan kelib chiqadigan yangi ma'no esa bildiruvchi deb ataladi. Bilinuvchi va bildiruvchi qo'shiluvidan belgi kelib chiqadi:



Matn(badiiy matn) chek-chegarasi bo'lmagan maydon bo'lib, u sanab adog'iga yetib bo'lmaydigan belgilarni o'z ichiga oladi. Mazkur belgilar matnning butun hududini qamrab olgan va ular bir - biri bilan turli aloqa - munosabatlarga kirishib matn yaxlitligini ta'min etadi.

"Matn esa cheksizdir. U na vertikal(tik), na gorizont(al)sath bo'ylab) chegaraga ega emas. U yuqori, past va to'rt tomonga qarab intiladi va hech qanday sarhadni tan olmaydi. "Shu nuqtai nazardan uni koinotga mengzash mumkin. Koinotning boshi va adog'i bo'lmaganidek, badiiy matnning ham ibtidosi hamda intihosi mavjud emas".

Matnning cheksizligi uning maydonidagi belgilarning o'zaro aloqabog'lanishlari tufayli yuzaga keladi. Badiiy matnning bir o'rnidagi belgi undagi boshqa o'rindagi belgi bilan munosabatga kirishar ekan, matnning hududi kengaya boshlaydi. U rang-tusi, qiyofasini qaysi bir darajada o'zgartirib, boshqacharoq ko'rinish kasb eta boshlaydi. Badiiy mazmun, badiiy konsepsiyada teranlashish yuzaga keladi. Harakat matnni yoshartiradi, u har bir davrning o'z mohiyatiga muvofiq keladigan dunyoqarashlariga muvofiqlashadi. Xuddi shu omilga ko'ra barkamol matn hamma zamonlarning vakillari tomonidan o'zgacha, oldingilardan farq qiladigan talqin va tushunishlarga asos bo'ladi. Jamiyat, ijtimoiy-madaniy tafakkur nechog'lik taraqqiy etmasin, matn eskirmaydi, avvalgiday million-million kitobxonlarni yuksak badiiy jozibasi, insonparvar estetik g'oyalari bilan maftun etaveradi.

Strukturalizm - o'tgan asrning 50-60 yillarida shakllangan fan sohasi. F. De Sossyur ta'limotini badiiy adabiyotga qo'llashga urinish natijasida yuzaga kelgan. Fransuz strukturalizmining yirik namoyandasi Rolan Bart strukturalizmni faoliyat deb hisoblaydi: "Strukturalizm undan foydalanuvchi hamma uchun faoliyat, ya'ni muayyan sohadagi fikriy amaliyotning tartibga tushgan izchilligi sifatida yuzaga chiqadi". Strukturalizm ta'limoti o'zagida "struktura" tushunchasi turadi.

Struktura atamasini sodda qilib aytganda, yuksak ichki tartib tarkibidagi intizomdir, deb izohlasak bo'ladi. Struktura tizim tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u tizim qaror topishining tuzilishi va ichki shakli bo'lib, bu shakl mazkur tizim elementlari o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi. Strukturalizmdagi shakl, ya'ni strukturaning (strukturalizmda shakl strukturaga salkam teng tushuncha hisoblanadi) ijodkor tabiati, ya'ni mavjud ma'noni kuchaytirishi, hatto yangi ma'no yaratish iqtidori haqidagi yetakchi aqida bu ilmiy oqimning eng kuchli jihati hisoblanadi. Struktural tahlil nigohi yakka hodisaga qaratilganda, uning ichki va quyi qatlamlariga kirish, voqea va obrazlarning ramzlashuv darajasini aniqlash, avval ko'zga tashlanmagan ma'no o'choqlarini ko'rgazmali tarzda ochish imkoniyati tug'iladi. Struktur-semiotik yondashuv muayyan ilmiy usul bo'lib, u butun asar yoki ma'lum kontekst zaminidagi badiiy ma'no va mazmun teranliklari kashf etilishiga ko'maklashishni maqsad qilib oladi. Strukturalizmda badiiy matnga yagona estetik-poetik tizim deb qaraladi. Strukturalistlarning fikricha, badiiy matn son-sanoqsiz birliklar majmuasidan iborat. Mana shu birliklarda mavjud bo'lgan kod (semiotikada belgi)lar bir-biri bilan aloqa-munosabatga kirishadi. Bunday munosabatlar matn yaxlitligi va harakatini yuzaga keltiradi.

Jahon so'z san'atining ayrim namoyandalari badiiy asarning voqea tizimi, qahramonlari xarakteri hamma vaqt ham o'zlarining izm-ixtiyorlarida emasligini payqagan edilar. "Rus yozuvchisi Ivan Turgenev "Otalar va bolalar" romanini yozishga kirishar ekan, bosh qahramon Bazarovni to'la-to'kis salbiy qahramon sifatida tasvirlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan ekan. Biroq voqea oqimi, xarakter mantig'i taqozosiga ko'ra bu obraz adibning niyatiga zid ravishda ijobiylashib borgan va Bazarov taraqqiyparvar yoshlarning umumlashma ijobiy timsoliga aylanib qolgan".

Shunga yaqin hodisani o'zbek nasri tarixida ham ko'rsa bo'ladi. "Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanini yozishga kirishar ekan, asosiy qahramonlardan biri bo'lmish Kumushbib o'limini o'z ijodiy

rejasiga kiritganmi yoki yo'qmi – buni biz bilmaymiz. Ammo uning o'g'li Habibulla Qodiriyning eslashicha, atoqli nosir romanda Kumush vafotini yozayotgan vaqtda yig'lagan ekan". Mazkur yodnomadan shunday xulosa kelib chiqadiki, ijodkor sevimli qahramoni o'limini istamagan. Ammo matnning tabiiy oqimi, uning mustaqil qonuniyatlari ushbu obraz mavtini taqozo etgan va muallif matn talabiga bo'ysungan.

"Badiiy matn mustaqil maydondir. U faqat o'ziga aloqador qonuniyatlar doirasidagina harakat etadi va o'z mohiyatini namoyon qiladi. Badiiy matnning mustaqilligi, avvalombor shu narsada ko'rinadiki, u nafaqat muallifga, shuningdek, muayyan bir mafkura, ta'limot, dunyoqarashga ham bo'ysunmaydi. Bu matn har qanday g'oya yoxud idealni rad qiladi degani emas. Matn badiiy qatlamlarida ma'lum bir nuqtai nazar, qarashlarni ifoda etgan mafkura va nazariyalar aks etadi, albatta. Ammo matn ularga bir yoqlama(tendenstioz) munosabatda bo'lmaydi. Badiiy matn tarkibidagi obrazlar bunday ta'limot va dunyoqarashlarga inkor yoki tasdiq jihatidan yondashishlari mumkin, biroq matn bunday qarashlarga nisbatan betarafligini saqlab qoladi".

Semiotikada matnning bepoyonligi haqidagi fikr doimo ta'kidlanib kelinmoqda. Matnning poyonsizligi deganda, ikki narsa e'tiborga olingan:

Badiiy matn hududidagi belgilarning son-sanoqsizligi.

Badiiy matn tahlili davomida yangidan yangi ma'nolarning kashf etilishi hamda bu jarayonning muttasil davom etishi.

Badiiy matnni g'ayrimatndan farqlash lozim. Matn mukammal adabiy-estetik tizimdir. Undagi har bir birlik(so'z, jumla, gap, matnning ayrim bir bo'lagi) o'z o'рни va vazifasiga ega. Ularni o'zgartirish yoxud qisqartirish mumkin emas. Agar shunday qilinsa, matn mukammalligiga putur yetadi va badiiy-estetik tizim izdan chiqadi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad o'z esdaliklarida yozishicha, u tajriba tariqasida mashhur so'z ustasi Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalaridagi ba'zi bir so'zlarni ma'nodoshiga almashtirishga harakat qilgan. Ammo bu ishdan hech bir natija chiqmagan. Matn o'z tarkibidagi birliklardan voz kechishni istamay boshqa lisoniy birliklarni qabul qilmagan. Bu hodisa shundan dalolat beradiki, matn daxlsiz hududdir. Bu adabiy-badiiy hudud boshqa tashqi xurujlardan juda mustahkam ihotalangan.

Har qanday badiiy asar matn bo'lavermaydi. Matn talablariga javob bera olmaydigan asar g'ayrimatn hisoblanadi. G'ayrimatnni struktur-semiotik jihatdan tahlil qilishning iloji yo'q. Chunki unda belgilarning mukammal tizimi shakllanmagan. G'ayrimatnning ziddi va muxolifi

hisoblangan badiiy matn adabiyotshunosga jiddiy va teran tahlil va tadqiq uchun noyob materialdir.

Fransuz strukturalizmining otaxonlaridan biri hisoblangan Rolan Bart “Belgi munosabatlari” deb nomlangan tadqiqotida sintagmatik munosabatlar “qarindoshlikka emas, qo’shniçilikka asoslangani” ni qayd etgan edi. Matn haqidagi tasavvurimizni yanada oydinlashtirish maqsadida shoir Rauf Rarfining 1962-yilda yozilgan “Xayrlashdik...O’ynar kapalak...” nomli o’n uch misradan iborat bo’lgan she’ri matnini struktur-semiotik tahlil qilishga va undagi sintagmatik munosabat haqidagi taassurotlarni aniqlashtirish maqsadida harakat qilamiz. Struktur tahlil mezonlariga muvofiq matnni eng kichik birlik – leksiyalarga ajratib chiqamiz (Leksiya bir so’zdan bir baytgacha bo’lishi mumkin).

Struktural-semiotik tahlil paytida hamma vaqt ham badiiy matnni kichik bo’laklarga ajratish majburiy emas. Bu ishni ong doirasida amalga oshirib, tahlilni bajaraverish mumkin. Matnni kichik birliklarga ajratish tadqiqotchining niyati, imkoniyat darajasi kabilarga bog’liq. Shunga qarab matn bo’laklari soni turlicha bo’lishi mumkin.

Matn tahlili: 1-leksiya. “Xayrlashdik...O’ynar kapalak...” Struktur-semiotik tadqiqotni boshlashdan oldin tanlab olingan badiiy matn kamida besh-olti marta sinchiklab o’qib chiqiladi. Matnni o’qish bilan birgalikda uqib ham borish lozim. Ayniqsa, eng so’nggi mutolaa chog’ida matnni juda sekin mutolaa etish zarur. Hech bir so’z, hatto tinish belgilari ham e’tibordan chetda bo’lmasligi shart. Shundagina matn mohiyati tadqiqotchiga oydinlashib boradi.

Binobarin, birinchi matniy bo’lak tarkibiga kirgan atigi uchta so’zdan tashkil topgan ikkita gapda aytilgan fikrlar tadqiqotchiga ham, she’rxonga ham muayyan bir taassurot bera oladi. Bu o’rinda gap sevgi haqida bormoqda. “Xayrlashdik” – yigit va qiz(yoki erkak va ayol) matnda aytilmagan sabablarga ko’ra bir-biridan ajralib ketishyapti. Bu vaqtinchalik emas, mangu ayriliqdir.

“O’ynar kapalak”. Bu o’rinda “kapalak” so’zi konnotativ ma’noda qo’llanmoqda. Mazkur ko’chma ma’noni anglash uchun og’zaki va yozma badiiy ijod namunalari hamda xalq jonli so’zlashuv nutqini xotirga keltirish lozim. “Xalq tasavvurida kapalak beqarorlik, shu bilan birga, bevafoqlik timsolidir. Kapalak o’yini ko’pga bormaydi, u bir necha lahza davom etadi”, xolos.

Shunday qilib, “xayrlashish” kommunikativ, “Kapalak o’yini” konnotativ ma’no kasb etadi. Ular ikkalasi sintagmatik qatorga

birlashgandagina, she'riy parchada yangi tushuncha hosil bo'ladi: matn ibtidosi barqaror bo'lmagan sevgiga oid qarashni ifodalamoqda.

4-leksiya. Biz asir bo'lmadik lahzaga.

Lahzaga asir bo'lish aslida muhabbatni mangu va eng yuksak, noyob tuyg'u deb bilishdir. Ammo "oshiq" va "ma'shuqa" bunday noyob kechinmani yurak-yurakdan anglab etmaganlar. Ularning yuzaki, havoyi his-tuyg'ulari o'tkinchi bir havas, xolos. Ishq yo'lida o'limdan ham tap tortmagan Farhodu Shirin, Laylovu Majnunlar qayoqda-yu, bu ikki "sevishganlar" qayoqda...

5-leksiya. Bu bog', bu gul keldi larzaga. Ushbu she'riy parchada "bog'" va "gul" lisoniy birliklari ham asl(kommunikativ), ham ko'chma (konnotativ) ma'nolarda istifoda etilmoqda. Asl ma'noda "bog'" ikki beqaror yosh uchrashib turadigan joy, "gul"(bog'dagi tilsiz guvoh) bunday muloqot-kurishuvlar, yalab-yulqashlarga ko'p marotaba shohid bo'lgan. Ko'chma ma'noda esa "bog'" muhabbat saltanati, "gul" esa shu yurtning sadoqatli vakili. Ular xiyonatni, oqibatsizlikni tasavvurlariga sig'dira olmaydilar, Oqibatsiz kimsalarning "vaqtinchalik ko'ngilxushliklari"dan ularning qalbi larzaga keladi.

6-leksiya. Shabnamning sof qadahi sindi. Misra sof konnotativ mazmunga ega. Shabnam – musaffo tuyg'u ramzi. "Shabnam to'ldirilgan sof qadah" esa pokiza tuyg'ular to'lib-toshgan navqiron qalb. Mazkur misradan ma'lum bo'ladiki, asli bu "lirik qahramonlar" boshda sevgi bog'iga toza niyat qadam qo'ygan ekanlar. Ammo qandaydir sabablarga ko'ra ular sevgida sobit bo'la olmaganlar.

7-leksiya. Kulimizni sovurdi falak. Bu matniy birlik avvalgi leksiyadagi misra bilan o'zaro aloqaga kirishib, undagi fikrni tasdiqlamoqda. Sof tuyg'ularga limmo-lim yurak tanazzulga yuz tutgan ekan, yorqin istiqbol haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Tahlil etilayotgan misradagi ustuvor fikr sevgidan mosuvo bo'lgan insonning kelgusi hayoti ayanchli va achinarli bo'lishini ko'rsatmoqda. Oltinchi va yettinchi misralardagi belgilar aloqa-munosabatga kirishib, alohida sintagmatik qatorni tashkil etgan.

9-leksiya. O'yin tushar rangin kapalak. Birinchi leksiya tarkibiga kirgan misra bir oz o'zgartirilgan holda takrorlanmoqda. Bunday takrorning poetik-funkstional o'rni shundan iboratki, "o'yin tushayotgan rangin kapalak" - beqaror insoniy munosabatlar katta fojia, u nafaqat shaxs, balki millat, insoniyat tanazzuliga sabab bo'lishi mumkin. Matnning ikkinchi leksiyasida "rangin" sifatlashi mavjud emas edi. Aynan hozir ko'zdan kechirayotgan misrada bo'lishini e'tibordan soqit etmaslik

zarur. “Kapalak” o‘z-o‘zicha go‘zal ko‘rinmaydi. Birinchi navbatda uning qanotlaridagi jilokor ranglar atrofdagilarning e‘tiborini tortadi. Ranginlik – bu tashqi jilo, bezak, u mohiyatga ega emas. Agar bu belgining “bilinuvchisi”ga diqqat qilsak, unda ramziylik borligiga ishonch hosil qilamiz. “Sevgi” dargohidagi soxta oh-vohlar, bir-biriga hirsii talpinishu bo‘ssalar ana shunday “ranginlik” alomatlaridir. Haqiqii ishqda boshqacha manzaralarni ko‘ramiz. Farhod har safar Shirinni ko‘rganda, hushdan ketadi, Majnun Laylining qo‘lini ushlashni ham xayoliga keltira olmaydi. Mana shular chin muhabbat nishonalaridir.

Sakkizinci va to‘qqizinci misralardagi belgilar tashqi jihatdan bir-biriga yaqin emas. Ular faqat sintagmatik aloqaga kirishgan holda bir-birini to‘ldiritb, aytilmoqchi bo‘lgan badiii fikrni yorqinlashtira oladi.

12-leksiya. Bir lahzaning farmoni qoldi. Konnotativ jihatdan bu mangu ayriliqni ifodalamoqda. Sof insonii munosabatga so‘nggi nuqta qo‘yilyapti. Bir-biriga yaqin va uyg‘un bo‘lgan ikki qalb bir-biridan ajralmoqda. So‘nggi ikki matnii birlik aloqaga kirishib, sintagmatik munosabat orqali matn yaxlitligini ta‘min etishga hissa qo‘shayotir.

14-leksiya. Buyuk sevgi armoni qoldi... Demak, matnning “lirik qahramonlari” buyuk sevgidan butunlay bexabar emas ekanlar. Ular ham vaqtida jahon so‘z san‘atida yuksak badiii mahorat bilan tasvirlangan Farhod, Vomiq, Qays, Romeo; Shirin, Uzro, Layli, Julettalar muhabbatiga havas qilishgan. Ammo ularning buyuk sevgisiga musharraf bo‘lish uchun havasning o‘zigina kifoya qilmaydi. Buyuk qalb egasi bo‘lish va muhabbatga abadii sodii bo‘lmoq darkor. Bu xislatlar bo‘lmas ekan, buyuk sevgi armon bo‘lib qolaveradi.

15-leksiya. Qanday go‘zal rangin kapalak... “Kapalak” bilan bog‘liq misra o‘zgartirilgan holda oxirgi marta istifoda etilgan. Bu matnni yakunlovchi birlikdir. Shu paytgacha amalga oshirgan tahlilimizning umumii mazmunidan kelib chiqqan holda mazkur matn bo‘lagi haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin bo‘ladi: misra muallif obrazining o‘tkinchi hislar haqidagi dardli o‘y-fikrlari, g‘am-o‘kinchi, qalb nolalarini ifodaloqda. Kommunikativ nuqtai nazardan qaralsa, chindan-da, rangin va jilvakor, raqs tushayotgan kapalak ko‘zga juda go‘zal va betakror ko‘rinadi. Ammo kapalakning raqsi ham, umri ham o‘tkinchidir. Kapalak juda oz umr ko‘radi. Konnonativ nuqtai nazardan ko‘zrib chiqilsa, soxta sevgi hech kimga baxt keltirmaydi. Uning oqibati “so‘nggi farmon”, ya‘ni ayriliqdir. Majburiy emas, ixtiyoriy hijron. Uning hosilasi ezgu va oliy kechinmalardan mahrum bo‘m-bo‘sh qalb va baxtdan ayrilgan azobli umrdir.

Garchi sintagmatik munosabatlar nisbatan badiiy matn tarkibida kamroq uchrasa-da, ularning ahamiyati paradigmatic va zid aloqabog'lanishlardan kam emas. Bunday munosabat matn yaxlitligini yuzaga keltirish va unda murakkab insoniy kechinma va o'y-fikrlarni yagona badiiy struktura maydonida yuzaga keltirish ishida g'oyat muhim o'rin tutadi. Matnda tasvir etilgan aksariyat sintagmatik munosabatlar "kapalak"ka oid belgilarga aloqadordir.

"Sevgi"ga bevosita aloqador bo'lmagan "kapalak" boshqa belgilar bilan sintagmatik aloqaga kirishib, aytilmoqchi bo'lgan yetakchi fikr-g'oyani yuzaga chiqarish va oydinlashtirishga xizmat qilgan.

She'riy matnda ifoda topgan ustuvor fikr-g'oya quyidagilardan iborat: faqat chinakam muhabbatgina insonni baxt-saodatli etishga qodir. O'tkinchi hoyu havaslar shaxsni yemiradi, uning ma'naviy-axloqiy tanazzuliga sabab bo'ladi. Binobarin, buyuk sevgi yo'lida sobit bo'lish shart.

Matn tahlili shundan yorqin dalolat beradiki, she'r yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan. Badiiyati yuqori darajada. Yorqin obraz va go'zal badiiy manzaralar matnning poetik jozibasini ta'min etgan. Unda biror-bir ortiqcha, keraksiz, ahamiyatsiz tasvir, so'z yo'q. Poetik-funksional munosabatlar badiiy matn yaxlitligini ta'min eta olgan. Aks holda matn ham, belgilar munosabati ham yuzaga kelmagan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ролан Барт.Избранные работы. Семиотики. Поэтики. Москва.: Мысл. 1989.
2. Бахтин М. М. Проблема текста. В его кн.: Эстетика словесного творчества – М: 1979.
3. Лотман Ю. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970.
4. Meliev S. Strukturalizm va struktur tahlil haqida. – O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. 2009. №2 B 12.
5. Murodov G'. "Yulduzli tunlar" romanida badiiy kodlar. – Buxdu ilmiy axboroti, 2000, 3-son.
6. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 364 б.
7. Abdughaniyevna S. R. Semiotics and fiction //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – Т. 8. – №. 3 S. – С. 183-188.
8. Rauf Parfi. Sukunat. "Toshkent", "Yulduzcha" nashriyoti, 1989.

VARIATIONS ANALYSIS OF TRANSFORMATION MOTIF IN THE WORLD LITERATURE

NARGIZA KADIROVA

*Doctor of Philosophy in Philological Sciences,
Pedagogical Institute of Bukhara State University,
Bukhara, Uzbekistan*

Abstract

Transformation motif is one of the most common traditional motifs in the oral and written world literature. However, serious scientific research on this topic has been rare. This article describes the formation of the transformation motif in world literature and reveals the available forms of this motif based on the analysis of data from various literary sources. Analysis of existing variations of the motif reveals interesting correlations, that form basis for further deeper research by scholars studying the role of motifs in plotline formation. The article examines the use of transformation motif and its specifics in works of world-famous writers.

Key words: motif, transformation, literature, folklore, fantasy, oral and written literature, myth, metamorphosis, evolution, classification.

Annotatsiya

Evrilish motivi jahon og'zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan an'anaviy motivlardan biridir. Biroq, bu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar kamdan-kam uchraydi. Ushbu maqolada jahon adabiyotida evrilish motivining shakllanishi yoritilgan va turli adabiy manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili asosida ushbu motivning mavjud shakllari ochib berilgan. Motivning mavjud variatsiyalarini tahlil qilish qiziqarli korrelyatsiyalarni ochib beradi, ular syujetning shakllanishida motivlarning rolini o'rganuvchi olimlarning keyingi chuqur izlanishlari uchun asos bo'lishi mumkin. Maqolada jahonga mashhur yozuvchilar asarlarida evrilish motividan foydalanish va uning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: motiv, evrilish, adabiyot, folklor, fantastika, og'zaki va yozma adabiyot, afsonalar, metamorfoza, evolyutsiya, tasnif.

Аннотация

Мотив превращения – один из самых распространенных традиционных мотивов в устной и письменной мировой литературе. Однако серьезные научные исследования по этой теме проводились редко. В данной статье описывается формирование мотива

превращения в мировой литературе и раскрываются имеющиеся формы этого мотива на основе анализа данных различных литературных источников. Анализ существующих вариаций мотива выявляет интересные соотношения, которые могут составить основу для дальнейших более глубоких исследований ученых, изучающих роль мотивов в формировании сюжета. В статье рассматривается использование мотива превращения и его специфика в произведениях всемирно известных авторов.

Ключевые слова: мотив, превращение, литература, фольклор, фантастика, устная и письменная литература, миф, метаморфоза, эволюция, классификация.

The transformation motif, reflecting the metamorphosis of humans, or other representatives of the natural world, from one form to another in oral and written world literature, is one of the literary and aesthetic phenomena that primarily originated in folklore and then migrated to written literature. In this regard, establishing the reasons for the transition of traditional transformation motif into written literature, its socio-psychological foundations, as well as the ways of artistic transformation depending on the time periods, is of particular importance for determining the historical and poetic stages in evolution of artistic and aesthetic thinking of humanity and substantiating the interrelation of the development of folklore and written literature.

At all times in the world literature there has been a high interest in the use of the transformation motif in the poetic interpretation of human destiny, serious changes in life, social shifts, turning points, psychological experiences. Establishing the role of the transformation motif in maintaining the artistry of the work, its functions in describing human emotions, general characteristics, genesis, internal appearance, artistic evolution, allows to confirm that vestiges of mythological thinking continue to exist in modern literature in the form of poetic innovations. Evolutionary transformations that occurred in the nature of the motif, the process of diffusion, poetic dynamics serve to understand the principles inherent in the development of mankind's artistic thinking.

In particular, Russian folklorist Propp's *The Historical Roots of Magic Tale* monograph, based on African mythological sources, defines that the reincarnation of the fairytale hero into an animal and reverse transformation into a human is based on mythical imaginations about the transition of people into the other world [5]. M. Bakhtin, reflecting on the

forms of time and chronotope in works in the novel genre, dwells on the heroes who have gone through the process of metamorphosis, on the role of transformation in their reincarnation and self-understanding [2, p. 77-99]. E.M. Meletinsky, exploring the artistry of myths, seeks to reveal the essence of mythical and psychological transformations in Kafka's works [4, p.407-408]. The foregoing indicates that in the world of literary criticism there is a lack of monographic studies giving a holistic view of the role, genesis, and artistic functionality of this subject.

The use of transformation motif in folk tales, legends, epics and fantasy works in Uzbek folklore and literary criticism has been studied in articles, monographs and dissertations of such scholars as G. Jalolov, F. Gozalev, T. Rakhmonov, S. Jumaeva, J. Yusupov, M. Sodikova, M. Murodov, Kh. Shaikhov and D. Kuvvatova .

It is well known that in ancient times people perceived death as a form of transition from one state to another, as a means of transition of a person from one world to another, and the kingdom of the dead as a world opposite to the one in which we live; where a person acquires a new form [5, p. 129]. As a result, in folklore genres of myths and legends a special epic motif emerged - the transformation motif, which embodied the mythological concept of transformation of a person into an animal, plant, object, as well as transformation of a certain creature or plant into a human being. Later, as a result of the development of poetic thinking and historical and evolutionary progress of artistic and aesthetic experiences, the genre of transformation motif, just as other ancient epic motifs in the plots of myths, legends, tales and epics, was used for artistic description and explanation of social and psychological factors of human transformation into another form with the help of cultural and ethical outlooks. It even turned into motif's primary and priority artistic task. Today, the transformation motif is often used in written literature to artistically reveal the "spiritual transformations" of human experience.

1. The transformation motif in folklore. In folklore, the transformation motif is not used in all genres of oral art. This is hindered by the fact that it is based on fiction, fantasy, belief in magic, mythology, the supernatural. For this reason, this motif is used only in genres of epic type, the plot of which contains fiction, such as myths, legends, fairy tales with elements of fantasy, or romantic poems.

2. The transformation motif in written literature has been used from ancient times to the present day. However, unlike folklore, the

transformation motif in the written artwork is found in the construction of the plot of poetic, prose, dramatic works, and plays an important role in the ideological and compositional connection of events.

Similarly to folklore, in some ancient literature works the metamorphosis of the protagonist is described in the form of a divine phenomenon. The only difference from folklore is that, the transformation occurs by the will, and because of the influence of the gods. In later works, the transformation of human is presented as a direct result of achievements in science and technology. For this reason, a similar interpretation of the transformation motif can be found more often in fairy tale and science fiction works. In particular, sci-fi novels, novellas and short stories contain interesting stories in which the protagonist changes his appearance, disappears, appears or becomes invisible with the help of some of his own invention, medicine, or found magical item (means).

The fact that the transformation motif has been used in oral and written art from ancient times to the present allows to divide it into two types based on the period of application. Namely: 1. The motif of traditional transformation. It is a poetic expression of the transformation of the main character of the work into an animal, plant, natural phenomenon, celestial body, object, etc., according to the plot of ancient mythological legends. 2. The motif of modern transformation. Describes how the main character changes his appearance, character, or becomes invisible due to some discovered element (a mysterious elixir, a medicine, an achievement in surgery).

The study of the participation and place of the transformation motive in the plot of the work in terms of significance in determining the genre nature, ideological and compositional direction of the work allows to define the active or inactive participation of the motif. That, in turn, points to the importance of studying the transformation motif in fiction literature in two directions:

- a) active functionality transformation motif
- b) inactive functionality transformation motif.

The transformation motif is one of the leading motifs of everyday life and adventure novels. In them, the hero, experiencing the process of "metamorphosis", strives for the truth through the adventurous and everyday life events, with the spiritual transformation and self-knowledge being observed. This is one of the main features of adventure and everyday life novels [2, p. 30].

Transformation often occurs because of human curiosity. A striking example of such a phenomenon is the transformation of the main character of the *Golden Ass*, Lucius, into a donkey, because of levity and "inappropriate curiosity" [2, p. 30]. Although Lucius's curiosity has expanded some of his opportunities (for example, as a donkey the protagonist is able to observe peoples' informal life hidden from public, learn their most intimate secrets, in particular intimate relationships), he still has to endure humiliation and suffer. Interestingly, the image of Lucius from *The Golden Ass* was used in European novels from the time of Apuleius until the 19th century. The moral uplift was achieved not through self-knowledge, but through penetration into the secrets of people, through the transition beyond the forbidden veil, into the unacceptable.

Our observations show that the motif of transformation used in fiction is formed in different variations, depending on functions. Specifically, 1. Transformation is advantageous-convenient for someone. For example, Lucius, the protagonist of Apuleius' *Golden Ass*, found it beneficial to change his appearance in order to secretly observe the private lives of others. 2. For other characters, it is an inconvenience. 3. And sometimes, an absolute disaster. As, for example, for Gregor Samsa, the protagonist of Kafka's *The Metamorphosis*. 4. A mean of slander. An example is Shakespeare's *A Midsummer Night's Dream*, depicting transformation into a creature with a donkey's head, and humiliation. 5. A way of exposing, revealing secrets. For example, Hoshimdjon, the main character in the Uzbek writer H. Tukhtaboev's *The Death of the Yellow Giant*, after becoming invisible with the help of a magic hat he found, "exposes" the fortune-teller, and that can be considered as one of the variations of the transformation motif.

In the chronotope of the post-medieval novel, the role of the active "unmasker" is played by the insane, cunning and mocking, while in *The Death of the Yellow Giant* this role is played by the schoolboy. This once again makes it clear that the transformation motif can be interpreted in conjunction with both the image of the child and the adult.

The struggle against social and everyday life vices is demonstrated using the "revealing" function of the transformation motif. In particular, in H. Tukhtaboyev's *The Death of the Yellow Giant* the transformation motif is used in parallel with other motifs in a parody mockery of social flaws, as well as deception and fraud of some individuals.

The transformation motif is particularly widely used to reveal the true face of negative characters in psychologically oriented works.

On the example of the world's written literature it has been noted that the transformation motif is used in the following artistic forms according to its historical-folklore, socio-psychological, artistic-aesthetic grounds: 1. The transformation of a person from an anthropomorphic into a zoomorphic image or into a natural phenomenon, a celestial body, as it happens in folklore. 2. The transformation of age, that is, from old to young, and vice versa. 3. Change of one's social status, condition, appearance by means of magical objects, such as a magic wand, a magic hat, a magic apple, a mysterious skin, a magic strand of hair, etc. 4. The resurrection of the dead, that is, the transformation of the dead into the living. 5. The evolution of the appearance and spiritual image of a person for the purposes of punishment, revenge, damnation, curiosity, exposure and the desire for personal enrichment with the help of their intellectual, scientific discoveries. 6. The transformation of a healthy person into a madman, due to the inability to endure life's blows. 7. The evolution of space and time.

Also, in world literature from ancient times to the present days, the transformation motif arises under the influence of three different forces, according to which the following types of motif can be distinguished: 1. The will and influence of the gods on the transformation. 2. The influence of demonological forces (devils, demons, genies and evil spirits) on the transformation. 3. The exposure of ordinary people or scientists to the transformation.

In written works, the transformation motif is often used to describe the transformation of the main character from human being to an animal or vice versa. The motif of human's transformation into an animal can also be found in works created after Apuleius' *Golden Ass*. In world literature, there are also works built on the basis of the motive of the transformation of an animal into a human. For example, *Mister Bello and the Magic Elixir* by Paul Maar, known in German literature for his fantastic stories. Another example is Bulgakov's *Heart of a Dog*. It includes a motif with a scientific basis for the transformation of a dog into a man.

The interpretation of spiritual (psychological) transformation plays an important role in modern literature as well. In general, there are three types of interpretation of transformation in written literature: a)

transformation associated with self-knowledge; b) the search for true knowledge; c) transformation associated with the search for truth.

It should be noted that the transformation often manifests itself in the form of cunning, madness and ridicule. In fact, these characters are quite healthy, but, by the above manifestations, they seek and reveal the truth. The effect of their transformation has two directions [7. p.33].

In conclusion, it can be noted that a special role in oral and written world literature is assigned to the similarity of the transformation motive, its traditionality, genesis in terms of artistic forms and tasks, with ancient mythological representations of the peoples of the world, such as animism, totemism, magic, fetishism, beliefs in the underworld, the realm of the dead, into gods or deities. There are historical-folklore, socio-psychological and artistic-aesthetic bases for the use of the transformation motif in the world fiction, while in the written literature the motif is directly influenced by folklore traditions. Which is often determined by the predominance of magical essence in it.

References:

1. Apuleius L. The Golden Ass or Metamorphoses. Moscow. Vneshtorgizdat, 1993.
2. Bakhtin M. Forms of time and chronotope in the novel. Notes toward a historical poetics. Translation by Zhurakulov U. Tashkent. Akademnashr, 2015. [p. 77-99]
3. Kadirova N.A. The motive of transformations in the works of world writers (community and individuality): Abstract of the thesis. Bukhara, 2020. [p. 33]
4. Arifovna, Kadirova Nargiza. "The Study of Turkic Nations Folklore and its Development." Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 10, 2021. [p. 55-59]
5. Meletinsky E.M. Poetics of myth. Moscow. Head editorship of oriental literature, 1976. [p. 407-408]
6. Paul Maar. Mister Bello and the Magic Elixir. Translation by Elena Mikhelevich, Moscow. Samokat, 2012.
7. Propp V.Ya. The Historical Roots of the Magic Tale. Leningrad University, 1986.
8. Publius Ovid Metamorphoses. Translation by S. Shervinsky. Moscow. Khudozhestvennaya Literatura, 1938. [p. 129]
9. Uraeva D. S., Kadirova N.A. Poetic functions of the transformation motif in the written literature. Philology matters. Tashkent, 2020, 2. [p. 17-31]
10. Vorobyov V.V. Linguoculturological paradigm of personality. Moscow. Peoples' Friendship University of Russia, 1996. [p. 170]
11. Yusupov J. Some considerations on the the transformation motif. Tashkent. Sharq Yulduzi, 2002. 1. [p. 152-153]

YENGIL ATLETIKA SPORT TO'GARAKLARIDA MASHG'ULOT OLIB BORAYOTGAN 3 SINIF QIZLARINING JISMONIY TAYORGARLIK DINAMIKASI

ABDULLAYEV MEHRIDDDIN
JUNAYDULLOYEVICH

*Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy
madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasini mudiri,
p.f.f.d. (PhD), professor.*

Anotatsiya: O'tkazilgan tadqiqot ishida yengil atletika sport to'garaklarida muntazam ravishda mashg'ulotlar olib borayotgan 3 sinf qizlarning jismoniy tayyorgarlik jarayonlari hamda jismoniy sifat darajalarining shakllanib borishi, jismoniy tayyorgarlik tizimlari, jismoniy sifat ko'rsatkichlari, tayyorgarlik dinamikasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat, kuch, tezkorlik, chidamkorlik, egiluvchanlik, jismoniy rivojlanish.

Аннотация: В проведенной исследовательской работе изучаются процессы физической подготовки девочек 3 класса, регулярно занимающихся в легкоатлетических спортивных кружках, а также становление уровней физической подготовки, систем физической подготовки, показателей физического качества, динамики физической подготовки.

Ключевые слова: физическая подготовка, физическое качество, сила, скорость, выносливость, гибкость, физическое развитие.

Abstract: In the conducted research work, the processes of physical training of grade 3 girls who regularly participate in athletics sports clubs are studied, as well as the formation of levels of physical training, physical training systems, indicators of physical quality, dynamics of physical training.

Keywords: physical fitness, physical quality, strength, speed, endurance, flexibility, physical development.

Аннотация: В проведенной исследовательской работе изучаются процессы физической подготовки девочек 3 класса, регулярно занимающихся в легкоатлетических спортивных кружках, а также становление уровней физической подготовки, систем физической подготовки, показателей физического качества, динамики физической подготовки.

Ключевые слова: физическая подготовка, физическое качество, сила, скорость, выносливость, гибкость, физическое развитие.

Abstract: In the conducted research work, the processes of physical training of grade 3 girls who regularly participate in athletics sports clubs are studied, as well as the formation of levels of physical training, physical training systems, indicators of physical quality, dynamics of physical training.

Keywords: physical fitness, physical quality, strength, speed, endurance, flexibility, physical development.

Dolzarbliigi: Butun jahon hamdo'stligi davlatlari orasida xotin qizlar sportiga bo'lgan talab va e'tiborning ortib borayotgani mamlakatimizda ham qizlar uchun jismoniy tarbiya hamda sport bilan muntazam ravishda mashg'ulotlar olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ushbu berilgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 3 sinf qizlarining jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari davrida jismoniy sifat darajalari hamda tayyorgarlik bosqichlarining takomillashib borishi aniqlanadi. Dast avval ko'plab olimlarimiz jismoniy sifat darajalarining shakllanib borishi ko'rsatkichlarining qay darajalarda ekanligini aniqlash maqsadida o'z tadqiqot ishlarini o'tkazishgan. Lekin o'tkazilgan tadqiqot ishlariga qaramay qizlarning jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori natijalarni qayd etishlari va yuksak darajada o'z sohalarining yetuk mutaxassisleri bo'lib yetishishlari uchun ularning tayyorgarlik jarayonlarida kechayotgan o'zgarishlarni aniqlash hamda ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun umumta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 3-sinf qizlari orasida tadqiqot ishlari olib borildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra maktab o'quvchilarining qariyb 50% dan ortiq qizlarida tayorgarlik darajalari past darajada ekanligi aniqlanib jismoniy sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirish zaruriyati borligi aniqlandi.

Tadqiqotning maqsadi: 3-sinf o'quvchi qizlarining dars mashg'ulotlaridan tashqari holatda yengil atletika sport to'garaklari bilan mashg'ulot olib borish jarayonlarida ulardagi jismoniy ko'rsatkich holatlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifasi: O'tkazilgan tadqiqot yuzasidan adabiyotlar tahlilini qilish va qizlarning jismoniy holatini aniqlash orqali ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: 3-sinf qizlarining darsdan tashqari holatda yengil atletika to'garak mashg'ulot jarayonlari.

Tadqiqotning predmeti: 3-sinf qizlarining yengil atletika mashg'ulot jarayonlari vaqtida umum jismoniy sifat darajalarini o'rganish.

Tadqiqot usullari: Adabiyotlar tahlili, matematik-statistik tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash.


Tadqiqotni tashkillashtirish: Tadqiqotlarda Toshkent viloyati Chirchiq shahar xalq ta'lim bo'limiga qarashli 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Chirchiq shahar xalq ta'lim bo'limiga qarashli 14-sonli ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi, Chirchiq shahar xalq ta'lim bo'limiga qarashli 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Chirchiq shahar xalq ta'lim bo'limiga qarashli 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Chirchiq shahar xalq ta'lim bo'limiga qarashli 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 2 sinf o'quvchilari ishtirok etishdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili: Tadqiqot o'tkazishning asosiy maqsadlaridan biri bu o'sib kelayotgan yosh qizlarning sog'lom turmush tarziga tayyorlash, ulardagi jismoniy sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda yuqori natijalarni qayd etib mamlakatimiz sharafiga himoya qilish har bir insonning eng oliy maqsadidir.

Rivojlanib kelayotgan davlatlarning ta'lim tizimiga nazar tashlasak ular orasidagi sog'lom raqobatdoshlikning ko'pligi va sport sohasida yoshlar bilan birgalikda psixologlarning ham ishlab borishi ularning yuqori natijalarga erishishlariga ham turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yosh qizlarning mashg'ulot jarayonlarida ularda kechayotgan fiziologik holatlari va jismoniy sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilib borish, yosh jihatidan psixologik holatlarini aniqlash hamda kerakli maslahatlar berib borish maqsadga muvofiqdir. Umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 3-sinf qizlarining jismoniy sifat darajalari va tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida nazorat sinov meyorlari olindi. Unga ko'ra dastlab kuch jismoniy sifat darajalarini aniqlash uchun arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash amaliyot sinovi olindi. Tadqiqot natijalariga asosan 3-sinf qizlarining 20% qismida kuch jismoniy sifat darajalari qoniqarsiz deb topilib 2 baho bilan qayd etildi. Qizlarning 25% da esa ushbu jismoniy sifat ko'rsatkichlari qoniqarli baholanib kuch jismoniy sifat darajalari past deb topildi. (1 rasimga qarang).

Navbatdagi nazorat sinovida kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash turgan joyda uzunlikka sakrash orqali amalga oshirildi. Natijalarga ko'ra 3-sinf qizlarining 25% da kuch jismoniy sifat darajalari past deb topildi va ular belgilangan vazifani bajara olmadilar. Aynan yana

25% qizlarda ushbu jismoniy sifat qoniqarli ekanligi aniqlanib 3-baho bilan belgilanda. Ushbu berilgan sinov amaliyoti 50% 3-sinf qizlarida past darajada ekanligi tadqiqot yakunida aniqlanmdi. (1 rasm).




1 rasm. Kuch jismoniy sifat darajalarining shakllanib borish ko'rsatkichlari

To'pni uzoqqa uloqtirish sinov mashqida ham kuch jismoniy sifat darajalarini aniqlanadi. Unga ko'ra qizlarning 20% da kuch jismoniy sifat darajalari qoniqarsiz ekanligi aniqlanib baholash mezonlariga asosan past 2 baho bilan qayd etildi. 30% qizlarda esa bu ko'rsatkich qoniqarli baholanib rivojlanish ko'rsatkichlari sust ekanligi aniqlandi. Qayd etilgan ushbu natijalarga ko'ra kuch jismoniy sifat darajalari 3 sinf qizlarining 50% da past miqyosda ekanligi aniqlandi. (1 rasmga qarang)

Tadqiqot ishlarining navbatdagi bosqichi tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlashga yordamlashadi. Tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda dastlab 30 m masofaga yugurish sinov amaliyoti olindi. Natijalarga ko'ra 25% qizlarda ushbu ko'rsatkich darajalari pastligi aniqlandi hamda baholash mezonlariga asosan 2 baho bilan qayd etildilar. 3 sinf qizlarining 30% qismida ushbu ko'rsatkich qoniqarli baholandi. Umumiy 55% qizlarining tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari birinchi sinov natijalariga asosan qoniqarsiz ekanligi qayd etildi.

Navbatdagi sinov amaliyoti 60 m masofaga yugurish orqali amalga oshirildi. Unga ko'ra 30% qizlarining tezkorlik jismoniy sifatleri qoniqarsiz ekanligi aniqlanib belgilangan masofani qo'yilgan vaqt ichida bosib o'ta

olishmadi. Yana 30% o'quvchi qizlarda ushbu jismoniy sifat darajalari qoniqarli baholandi. Umumiy 60 m masofaga yugurish sinov mashqida 60% 3-sinf qizlarida tezkorlik jismoniy sifat darajalari past deb topildi. (2 rasmga qarang).




2 rasm. Tezkorlik jismoniy sifat darajalarining shakllanib borish ko'rsatkichlari

Keyingi nazorat sinov mashqi orqali 3-sinf qizlarining tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarining qay darajada shakllanib kelayotgani aniqlanadi va ishlab chiqilgan mezonlarga asosan baholanadi. Tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlarini yanada to'g'riroq baholash maqsadida 4x10 m masofaga yugurish amaliy mashg'uloti tanlab olindi. Natijaga ko'ra 30% qizlarning tezkorlik jismoniy sifat darajalari past darajada deb topildi va belgilangan normativ talablarini bajara olishmadi. 25% o'quvchi qizlar esa qoniqarli 3 baho bilan belgilangan sinov mashg'ulotni yakunlashdi. Ushbu olingan natijada ham 3-sinf qizlarining 55% qismida tezkorlik jismoniy sifati past darajada deb topildi.

Yugurib kelib uzunlikka sakrash amaliyoti ham maktab qizlarining jismoniy sifat darajalarini qay yo'sinda shakllanib kelayotganini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu nazorat sinov mashqi orqali ham tezkorlik, ham kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Natijaga ko'ra 25% qizlarning oldinga qo'yilgan talab meyorlarini bajara olmay sinov amaliyotidan yiqilishdi. O'quvchi qizlarning 30% esa qoniqarli natija bilan

sinov mashg'ulotini past baholarga topshirishdi. Tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari 3-sinf qizlarining 50% dan ortiq qismida past darajada ekanligi aniqlandi.

Navbatdagi jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash uchun chidamkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlariga doir nazorat sinovlari belgilandi. Bu orqali ham jismoniy tayyorgarlik darajalarini, ham chidamkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlash ko'zda tutilgan.




3 rasm. Chidamkorlik jismoniy sifati darajalarining shakllanib borish ko'rsatkichlari

Chidamkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlashda gardishni belda 1 daqiqa aylantirish nazorat sinov mashqi tanlandi. Unga ko'ra 3-sinf qizlarining 20% da chidamkorlik jismoniy ko'rsatkichlari qoniqarsiz ekanligi aniqlandi. Qizlarning 30% da esa ushbu ko'rsatkich qoniqarli ekanligi aniqlanib baholash mezonlariga asosan 3 baho bilan belgilandi. (3 rasmga qarang)

Chidamkorlik jismoniy sifati darajalari asosan uzoq masofaga yugurish amaliy mashg'ulotlarida olib boriladi. 3-sinf qizlarining chidamkorlik jismoniy sifati darajalarining shakllanib borish ko'rsatkichlari 1000 m masofaga yugurish orqali aniqlandi. Natijaga asosan 30% qizlarda chidamkorlik sifati past darajada ekanligi aniqlandi, shuningdek 35% qizlarda qoniqarli natija qayd etildi. Yakuniy xulosaga ko'ra 60% dan ortiq 3-sinf qizlarida chidamkorlik jismoniy sifati darajalari past deb topildi.

Jismoniy sifat darajalarini aniqlash hamda tayyorgarlik jarayonlarini to'g'ri baholash o'sib kelayotgan yosh qizlarning yuqori malakali sportchilar bo'lib yetishishlari uchun xizmat qiladi. (3 rasmga qarang).



4 rasm. Egiluvchanlik jismoniy sifat darajalarining shakllanib borish ko'rsatkichlari

Egiluvchanlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari. Ushbu jismoniy sifati jarayonlarini aniqlash uchun tik turgan holda (oldinga) pastga egilish nazorat sinovi olindi. Tadqiqot natijalarga asosan 3-sinf qizlarining 20% da egiluvchanlik jismoniy sifatilari past darajada ekanligi aniqlandi. Qizlarning 30% qismi esa qoniqarli darajada mashg'ulotni bajarishdi. Egiluvchanlik jismoniy sifati tadqiqot yakuniga ko'ra 50% qizlarda past darajada shakllanib borayotgani aniqlandi. (4 rasmga qarang).

XULOSA

Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan yengil atletika to'garaklarida shug'ullanuvchi 3-sinf o'quvchilarining jismoniy sifat ko'rsatkichlari va jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

O'tkazilgan tajribalar davomida adabiyotlarni ilmiy-uslubiy tahlil qilish hamda pedagogik kuzatuvlar natijalariga ko'ra bugungi kunda yengil atletika sport turi bilan maktab yoshidagi qizlarning mashg'ulotlar olib borishi va sportga bo'lgan qiziqishlari nisbatan kamligi aniqlandi.

Maktab yoshidagi qizlarni jismoniy rivojlantirish va tayyorgarlik darajasini mustahkamlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga asoslangan adabiyotlar yetishmasligi hamda ulardagi psixologik holatlarni aniqlash uchun yetarlicha psixolog mutaxassislarning yetishmasligi tadqiqot jarayonida ma'lum bo'ldi.

O'z navbatida 3-sinf qizlari bilan yengil atletika mashg'ulotida qo'llaniladigan vositalaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazishga mo'ljallangan dars jarayonlari, sport to'garaklari yetarlicha mavjud emas.

Mamlakatimizdagi shart-sharoitlarni hisobga olgan holda yengil atletika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan vositalaridan foydalangan holda dars jarayonlarining metodologiyasini ishlab chiqish va shakllantirish o'z dolzarbligini belgilaydi. Ushbu natijalar 3-sinf qizlarining salomatligini mustahkamlash, har tomonlama jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 3 iyundagi PQ 3031– sonli qarori. LEX.Uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi" ning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

3. Абдуллаев, М. Ж. (2018). Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғullanувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси. *Фан-Спортга*, (2), 13-15.

4. Abdullaev, M. J. (2020). Characteristicsages. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(11).

5. Abdullayev, M. J., Berdiyev, O. I., & Omonova, N. R. (2021). Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions. *The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI*, 3(02), 312-320.

6. Abdullaev M. J. Methodology of application games in the training of young athletes //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 11.

7. Abdullaev M. J. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 11.

8. Tajibaev, S. S., Abdullaev, M. J., Niyazov, A. T., & YuNiyazova, O. (2020). This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old

athletes in the primary training group. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(6), 2907-2914.

9. Junaydulloevich, A. M. (2021). METHODOLOGY OF TEACHING ATHLETICS FOR CHILDREN OF DIFFERENT AGES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 49-59.

10. F.A.Kerimov Sportda ilmiy tadqiqotlar. T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018. -348 B.

11. Salamov R.S. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati". 1 tom. Darslik. ITA PRESS. T. – 2014 y. 269 b.

12. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 tom. Darslik. ITA-PRESS. T. 2015 . 220 b.

13. Богданова В.А. Дифференцированный подход в физкультурном образовании младших школьников. Автореф. дис. кан. пед. наук. Тюмень, 2001. - 22 с.

14. Губа В.П. Оценка физического развития детей по данным морфологических наблюдений // Теория и практика физической культуры, №3. – М., 1998. – С. 32-33.

15. Лях В.И. «Основные закономерности взаимосвязей показателей, характеризующих координационные способности детей и молодежи: попытка анализа в свете концепции» Н.А. Бернштейна / В.И. Лях // Теория и практ. физич. культуры. – 1996. – № 11. – С.20-25.

HARBIY TA'LIM FAKULTETIDA MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA UNDAGI MA'NAViy TIZIM HOLATINI O'RGANISH SIFATIDA

ABDULLAYEV YO'LCHI ZIYAYEVICH

Zaxiradagi mayor, dosent, BuxPI Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari, yulchi-nvo@mail.ru.

Annotasiya: Maqolada yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash munosabati bilan Yangi O'zbekiston - bu "Xalq manfaati hamma narsadan ustun" degan ezgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va targ'ibotning zamonaviy texnologiyalarini joriy etib borish to'g'risida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Axloq, yot g'oya, mafkura, ma'rifat, qadriyat, tuyg'u, qaram, ong, Vatan, taqdir, intellektual, ideal.

Аннотация: В связи с реализацией стратегии развития нового Узбекистана и реализацией государственной программы «Прославление человеческого достоинства и год активного соседства» в статье «Новый Узбекистан» благородная идея о том, что «интересы народа превыше всего» и масштабные реформы и духовные – думалось о повышении эффективности воспитательной работы и внедрении современных технологий пропаганды.

Ключевые слова: Этика, чужая идея, идеология, просвещение, ценность, чувство, зависимое, разум, Родина, судьба, интеллектуал, идеал.

Abstract: In connection with the implementation of the development strategy of the new Uzbekistan and the implementation of the state program on "Glorification of human dignity and the ear of an active neighborhood" in the article, New Uzbekistan is a noble idea that "People's interest is above all else" and large-scale reforms and spiritual - it was thought about increasing the effectiveness of educational work and introducing modern technologies of propaganda.

Key words: ethics, alien idea, ideology, enlightenment, value, feeling, dependent, mind, Motherland, destiny, intellectual, ideal.

Yoshlar orasida "Men Sizning yoningizda turib, kamarbasta bo'laman!" deb ko'zi yonib turgan, bilimli, jasoratli yigit-qizlar borligiga ishonaman. Etakchilikning, o'z ortidan ergashtirishning eng to'g'ri yo'li shaxsiy o'rnak va namuna bo'lishdir.

Sh.Mirziyoev

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar – bu harbiy talabalarda yuksak ma'naviy-axloqiy, jangovar va ruhiy sifatlarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, tafakkuri va irodasiga ijobiy ta'sir etishga, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bo'yicha harbiy boshqaruv organlari tomonidan maqsadli va tizimli ravishda amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Ma'rifat – bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat atama sifatida - tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi⁹.

Harbiy ta'lim fakultetlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirishni taqozo etuvchi omillar quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

harbiy ishning, qurolli kurash shakl va usullarining rivojlanish davrida harbiy xizmatchilarning professional malakasiga, jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarligiga, ma'naviy-axloqiy, ruhiy va jangovar fazilatlariga qo'yiladigan talablarning tobora ortib borishi;

xalqaro maydonda turli mafkura va g'oyalar kurashi, informasion-psixologik xurujlar orqali milliy armiyamizning ma'naviy-axloqiy asoslariga ta'sir o'tkazishga bo'lgan urinishlarning kuchayib borishi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali bizning madaniyatimiz, ma'naviy qadriyat va an'analarimizga mutlaqo zid bo'lgan buzg'unchi g'oya va tushunchalarni harbiy talabalarning ongu tafakkuriga singdirishga urinishlarning ortib borishi;

mustaqilligimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy

⁹ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: "Маънавият", 2008. 68-бет.

qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, harbiy xizmatchilar qalbi va ongiga o'z Vataniga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasining dolzarb ahamiyat kasb etishini tushunish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni qudratli va engilmas kuchga aylantirish uchun, avvalo, harbiy talabani qalbiga yo'l topa bilish lozim.

Harbiy talabani qalbiga yo'l topilmasa, unga yetkaziladigan har qanday ma'lumot va tushunchalar yuzaki bo'lib qoladi. Shuning uchun ham bu borada tizimli sur'atda doimiy ish olib borish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun, eng avvalo, inson qalbiga yo'l topishdan ish boshlash lozim.

Harbiy talabani qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalarni, jumladan, tarbiyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy va madaniy ishlarni zamon talablari asosida yanada kuchaytirish, yangi bosqichga ko'tarish zarur deb hisoblayman.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar Harbiy ta'lim fakulteti shaxsiy tarkibi bilan olib boriladigan ishlarning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, harbiy talabalarni mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy jihatdan tarbiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida armiyani kuchiga kuch qo'shadigan, vaqti kelganda hal qiluvchi omilga aylanadigan qudratli bir vosita borki, u – harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi, ularning baquvvat iroda, faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi, eng muhimi, kim uchun va nima uchun harbiy burchini ado etayotganini chuqur anglashi va tushunishi deb o'ylayman.

SHu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlar harbiy talabalarning jangovar shayligi va shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy barqarorligini ta'minlovchi, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, vatanparvarlik tuyg'usi, harbiy burch va shaxsiy mas'uliyat hissi, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vosita hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ustuvor maqsadi – e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin shaxs ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachisini tarbiyalashdan iboratdir.

Xo'sh shunday ekan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy maqsadlariga nimalar kirishii ko'rib chiqaylik:

harbiy talabalarda yuksak vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy

fazilatlarni shakllantirish, ularning faol hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodini, ona Vatan taqdiri uchun mas'uliyatini kuchaytirish;

yurtimizga, xususan milliy armiyamizning ma'naviy-axloqiy negiziga ta'sir o'tkazishga qaratilgan mafkuraviy tazyiq va informatsion-psixologik xurujlarga nisbatan harbiy talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

harbiy talabalarni ruhan uyg'oq va sergak bo'lishga, zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni qalban his etishga, hamisha ogoh va hushyor bo'lib, xizmat-jangovar vazifalarni fidokorona bajarishga safarbar qilishdan iboratligini aytib o'tish mumkin¹⁰.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'ramiz:

harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi, estetik tarbiyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni yaratish;

harbiy talabalarining ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish;

harbiy talabalar ongida milliy mafkura hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yangi dunyoqarashni shakllantirish;

harbiy talabalarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda etkazish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, burchga sadoqat, mas'uliyat, fidoyilik tuyg'ularini oshirish;

harbiy talabalar qalbida milliy g'ururni kuchaytirish, Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urfodat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini chuqur tushuntirish;

milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida harbiy talabalarda "O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram

¹⁰ Концепция повышения эффективности духовно-просветительской работы в системе Вооруженных Сил Республики Узбекистан. - Т. ПП-3898 от 2018. 3-стр.

bo'lmaydi!" degan hayotiy e'tiqodni qaror toptirish;

dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy talabalarga ezgulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash;

yurtimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy va informasion-psixologik xurujlar, ularning ortida turgan destruktiv (buzg'unchi) kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, harbiy xizmatchilar ongi va qalbini beparvolik, loqaydlik, xudbinlik va g'oyaviy beqarorlik singari illatlardan forig' etishni maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda yagona tizim doirasida harbiy ta'lim muassasalarida kundalik ishlar faoliyatida boshliqlar rahbarligida tashkil etiladi shuningdek, bevosita tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari tomonidan olib boriladi.

Barcha bo'g'indagi komandirlar tarkibi uchun: *"Qayerdagi, beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi, - degan haqiqat dasturulamal bo'lishi kerakligini aytib o'tish kerak*¹¹.

Harbiy muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish va o'tkazishdagi samaradorligi uchun harbiy muassasa boshlig'i ularning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari bevosita mas'ul hisoblanadilar.

Harbiy ta'lim muassasalarining boshliqlari va o'rinbosarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha uning maqsad va vazifalarini belgilash, tadbirlarni rejalashtirish, tadbirlarni o'tkazishda tashkilotchilarga bevosita amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish, ilg'or tajribani ommalashtirish, moddiy-texnik bazasini muntazam takomillashtirib borish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati tahlilini o'tkazish, kelgusi tadbirlarni belgilash va mansabdor shaxslarga vazifalar belgilash kabi ish tizimini o'z ichiga oladi.

O'tkaziladigan ma'naviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish, o'z vaqtida

¹¹ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. // Ватанпарвар, 2016 йил 16 декабрь. 2-бет.

va sifatli o'tkazilishi, eshlarni tadbirlarga jalb etilishi tegishli muassasa rahbarlari tomonidan qat'iy nazorat ostiga olinishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davomida milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, xalqimiz tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi, milliy istiqlool g'oyasi, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi, ichki va tashqi siyosati, Qurolli Kuchlar islohoti, vatanparvarlik tuyg'usi yoshlarimiz ongu tafakkuriga chuqur singdirilishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini doimo oshirib borish, bu ishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ta'minlash - har bir rahbar hamda uning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarining kundalik xizmat faoliyatidagi muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirishning shartlari quyidagilar hisoblanadi:

maqsadni aniq belgilanganligi va dolzarbligi, tadbirning nega, nima uchun aynan shu mavzuda, shu vaqtda, shu qatnashchilar tarkibi bilan o'tkazilishining asoslanganligi;

sodda, qiziqarli, dolzarb, qatnashchilarning manfaatlariga, ehtiyojlariga mos ma'naviy-ma'rifiy muammolardan birini hal etishga qaratilgan bo'lishi;

tadbirning maqsadi, qatnashchilar bilib olishi zarur bo'lgan asosiy fikrlarning tezis shaklida aniq yozilganligi;

tadbir mavzusi haqida barcha qatnashchilarga e'lon qilinishi;

tashkilotchilarning tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rishgani, zarur audio, vizual, ko'rgazmali vositalar tayyorligi;

tadbir ssenariysining oldindan tuzilib, mas'ullar bilan kelishilganligi, so'zga chiquvchilar, savol-javoblar uchun vaqtning aniq taqsimlanganligi;

qatnashchilarni toliqtirmaslik, ularning diqqatini doimiy jalb qilib, faollashtirib turilishi, tarixiy, milliy, zamonaviy fakt, misollar, raqamlardan foydalanish;

tashkilotchilar bilan qatnashchilar orasida muloqot, o'zaro murojaat uchun qulay, samimiy muhit ta'minlanganligi, qatnashchilarning tadbir mavzusini bilib, tayyorlanib kelishi nazarda tutilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda targ'ibot ishlarini ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy innovasion va interfaol usul va uslublardan, axborot-kommunikasion tizimlardan keng va unumli foydalanish katta samara beradi. Kichik bir videolavha harbiy talabalarning ongi va tafakkuriga uzun bir maqola yoki ma'ruzadan ko'ra

samaraliroq ta'sir etadi. SHu bois, tadbirlarni o'tkazish vaqtida videomateriallar, televidenie va radio imkoniyatlaridan hamda ommaviy axborot vositalarining boshqa turlaridan keng qamrovli foydalanish tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

Tele va radiovositalardan tashqari matbuot materiallaridan ham unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi. CHunki matbuot materiallari doimiy va uzoq vaqt davomida harbiy muassasa yoshlarining ongi va xulq-atvoriga ta'sir o'tkazuvchi, harbiy jamoalardagi barqaror axloqiy-ruhiy holatni saqlab turishga xizmat qiladi¹².

O'zbekistonning harbiy ta'lim fakultetlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar aniq maqsadga qaratilgan holda to'g'ri yo'lga qo'yilar ekan, harbiy talabalarning dunyoqarashi, vatanparvarlik hissi, ijtimoiy-siyosiy bilimdonligi va faol hayotiy pozitsiyasi oshib boradi. Bu esa, o'z navbatida qism va bo'linmalarda harbiy intizomni mustahkamlashga, huquqbuzarliklarni oldini olishga, ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashishiga olib keladi.

So'zim so'ngida, xulosa sifatida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning sodda, ixcham va ravon tarzda tushunilishi, hayotiy va obrazli, ijodiy yondashilgan, rasmiyatchilikdan xoli bo'lishi juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi. - T., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3898 qarori. 2018.
2. Konsepsiya povysheniya effektivnosti duxovno-prosvetitel'skoy raboty v sisteme Vooruzhennykh Sil Respubliki Uzbekistan. - T. PP-3898 ot 2018.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. -T., 2001.
4. Karimov I.A. yoshlarimiz xalkimizning ishonchi va tayanchi. - T.: "Ma'naviyat", 2006.
5. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008.
6. Mirziyoev SH. M. erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. // Vatanparvar, 2016 yil 16 dekabr.

¹² Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари тизимида маънавий-маърифий ишлари самарадорлигини ошириш концепцияси. - Т., Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3898 қарори. 2018. 4-бет.

MARKAZIY OSIYODA MUSIQA MADANIYATINING SHAKLLANISH TARIXI

YARASHEV JO'RABEK TO'RAYEVICH

*Buxoro davlat Pedagogika instituti
San'atshunoslik kafedrası mudiri, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)., dotsent.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda musiqa madaniyatining shakllanish tarixi, musiqaning insoniyat turmush tarzida tutgan o'rni haqida buyuk Sharq allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Al-Xorazmiy, Pahlavon Mahmud, Umar Xayyom, Abdulqodir Marog'iy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Darvesh Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz tomonidan yetarlicha asoslab berilganligi aks etgan.

Kalit so'zlar: musiqa, musiqa tinglashijro uslublari, musiqa madaniyati, inson ruhiyati, maqom, shashmaqom, ijrochilik uslublari, nafislik, badiiy did, raqs, ilhom, milliy musiqa.

Annotation: This article reflects the history of the formation of musical culture in Central Asia, the role of music in the way of life of mankind, sufficiently substantiated by The Great Eastern scholars Abu Nasr Farabi, Abu Ali Ibn Sina, Muhammad Al-Khorezmi, Pahlavon Mahmud, Umar Khayyam, Abdulkadir Maragiy, Mirzo Ulugbek, Zahiriddin Muhammad Babur, Abdurahman Jami, Alisher Navoi, Darvesh Ali Changiy and other great grandfathers.

Keywords: music, listening to music, musical styles, musical culture, human psyche, status, shashmaqom, performance styles, elegance, artistic taste, dance, inspiration, National Music.

Аннотация: В данной статье рассказывается об истории становления музыкальной культуры в Центральной Азии, о роли музыки в жизни человечества, о великих восточных ученых Абу Наср Фараби, Абу Али Ибн Сина, Мухаммад аль-Хорезми, Пахлаван Махмуд, Омар Хайям, Абдулкадир Мароги, Мирзо Улугбек, Захириддин Мухаммад Бабур, Абдурахман Джами, Алишер Навои, Дервиш Али Чанги и других. это нашло отражение в достаточном обосновании нашими великими предками.

Ключевые слова: музыка, музицирование, стили исполнения, музыкальная культура, человеческая психика, статус, Шашмаком, стили исполнения, элегантность, художественный вкус, танец, вдохновение, национальная музыка.

Milliy ma'naviyat va ma'rifat tizimida mafkuramizni rivoshtirishda xizmat qiluvchi xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish va ta'lim tizimida musiqa merosimizni o'rganish va san'atsevar xalqimizga yetkazish muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, bu borada o'lmas merosimiz, ustozdan-shogirdga o'tib kelgan xalq an'anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlariga murojaat qilish bilan birga, bobokalon san'atkorlarimiz tomonidan bizga meros qilib qoldirib ketilgan durdonalarni chuqur o'rganamiz. Zero, xalqimizning bebaho boyligiga aylangan musiqa merosimiz o'zining boy tarixiga ega bo'lib, davr o'tgan sari uni o'rganishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi, qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk Sharq allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Al-Xorazmiy, Pahlavon Mahmud, Umar Xayyom, Abdulqodir Marog'iy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Darvesh Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijro uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni, o'zlarining fikr va mulohazalarini bayon etib ketganlar.

Mashhur qomusiy asar "Qobusnoma"da ham san'atchilik qoidalariga bag'ishlangan alohida bob, o'rin olgan. Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan buyumlarda dutor, surnay, qonunga o'xshash sozlarni aks ettirilganligi toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari o'lkamizda cholg'u ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat berishi shubhasiz, albatta. Sharq xalqlarining fundamental musiqiy merosi bo'lmish maqom, mug'om, dastgoh, navba, raga, kuyi kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan avlodga og'zaki va amaliy ijro ravishda ustoz-shogird an'anasi tarzida o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVIII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarboyjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (duvozdax) maqom mavjud bo'lgan. Bu o'n ikki maqomning nomlari va tartibi aynan Darvishali Changiy tomonidan ko'rsatilganidek belgilangan:

1. Ushshoq.
2. Navo.
3. Bo'sliq.
4. Rost.

5. Husayniy.
6. Rahoviy.
7. Hijos.
8. Zangula.
9. Iroq.
10. Isfaxon.
11. Zirafkand.
12. Buzurg.

Darvesh ali Changiy o'n ikki maqomning tizimi falakning o'n ikki burjiga qiyoslab yaratilganligini quyidagicha ta'riflaydi:

«**Rost**»dir Burji Hamal karda maqom,
Hamchu «**Isfahon**» va Savri Nekom.
Bo «**Iroq**» omad va Javzo ne nifoq,
«**Ko'chaku Harchang**» karda ittifoq.
Gar «**Buzurg**» andar Asad gashta nihon,
Az «**Hijozu**» Sunbula bore bixon.
«**Bo'salik**» omad ba Mezon ba navon,
Soxt bo «**Ushshoqu**» bo Aqrab nihon.
Chun «**Husayniy**» Qavero damsoz shud,
«**Zangula**» to Jaddi ham ovoz shud.
Shud «**Navo**» vu Dale bo ham sozgar,
To «**Rahoviy**» ro bo hush aftod Kor.

Tarjimasi:

«**Rost**» Hamal burjida aylab maqom,
«**Isfahon**»dek Sarvga aylab xirom.
«**Iroq**» ila keldi Javzoga etib firoq,
«**Ko'chak u Xarchang**»ni aylab ittifoq.
Gar «**Buzurg**» Asadda bo'lsa nihon,
«**Hijoz**»u, Sunbuladan o'qib xushxon.
«**Bo'slik**» keldi Mezonga «**Navo**» birlan,
«**Ushshoq**»la ahd tuzdi Aqrabga pinxon.
«**Husayniy**»dek Qavsga damsoz bo'ldi,
«**Zangula**» Jaddiga jo'rnavoz bo'ldi.
«**Navo**» bo'ldi Davl bilan sozgar,
To «**Rahoviy**»la hamovoz bo'ldi.

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, buyuk olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining, «Dar bayoni duvoz dax maqom» (O'n ikki

maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: “Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog’iy Xoja Sayfiddin Abdulmo’min, Sulton Uvays Jaloiriy”ning so’zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo’lgan: “Maqomi Rost”, “Maqomi Ushshoq”, “Maqomi Navo”, “Maqomi Raho”, “Maqomi Xijoz”, “Maqomi Iroq”, “Maqomi Xusayniy”). Yana ushbu risolada ulug’ bobomiz Ulug’bekning o’zi tanbur va nog’ora cholg’u sozini juda yaxshi chalganligini, “Bulujiy”, “Shodiyona”, “Axloqiy”, “Tabriziy”, “Usuli ravon”, “Usuliy otlig’” singari usullarni ixtiro qilganligini ta’kidlab o’tadi.

Yuqoridagi fikrlarga suyanan holda shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo’llari sayqallangan ko’rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlariga qarab, ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo’llari ham o’z o’rnini topganligi ehtimoldan holi emas. Natijada keyingi asrlarga kelib Buxoroning «Shashmaqom»i (“Olti maqom”): “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” maqomlari o’zining nasr va mushkilot qismlari bilan rivojlangan bo’lsa, Farg’onaning “Chor maqom”i («to’rt maqom»): “Dugoh-husayn”ning yettita yo’li, “Chorgoh”ning oltita ijrochilik yo’li “Gulyori shahnoz”ning oltita ijrochilik yo’li hamda “Bayot” yo’llari bilan jilolanib Xorazm maqomlarida ham shunday holni kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi qilib “Panjgoh” maqomi kiritilgan. Shuning uchun ham avloddan avlodga o’tib kelgan bebaho musiqiy boylik sanalmish Buxoro, Xorazm, Farg’ona, Toshkent ijro yo’llari, maqomlari betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug’ ne’mat sifatida ardoqlanadi.

Musiqiy ijrochiligimizning yana bir yo’nalishi bo’lgan dostonchilik san’ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlangan bo’lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi.

Xalq san’atining ulkan bilimdoni, ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov «Milliy musiqa san’atimiz bamisoli bir daraxt bo’lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg’onadir» deb ta’riflagan ekanlar. Ustozning bu so’zlarida katta ma’no yotadi, albatta.

Xalq cholg’ulari uzoq o’tmishda paydo bo’lgan. Ma’lumotlarga qaraganda dastlabki cholg’ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqa san’atida dastlab urma zarbli cholg’ular paydo bo’lgan. Bu tushunarli. Chunki, eng qadimgi mehnat qo’shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog’liq.

Keyin esa shovqinli cholg'ular paydo bo'lgan. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlab, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochilar ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas, go'zal holatni vujudga keltiradi.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuzlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), sharqida esa Grek-Baqtriya davlatlari tashkil topdi. Eramizning I asrida O'rta Osiyoning janubiy qismida qudratli Kushon davlati tarkib topdi. Mahalliy Kushon sulolasi hokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi o'laroq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab-yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratilishiga shart-sharoit yuzaga keldi.

Quldorlik tuzumi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan arxiologik qazilma ishlar chog'ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.

Eramizning IV asridan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarida o'zgarish yuz berdi: Quldorlik tuzumi o'rnini asta-sekin feodal tuzumi egallay boshladi. IV asrning 60-yillarida O'rta Osiyoga turklarning kirib kelishi natijasida turkiy va sharqiy Eron xalqlarining aralashuvi tobora kuchayib, natijada o'zbek va boshqa O'rta Osiyo xalqlari shakllandi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyo hududi Turkiston (turklar yashaydigan joy) nomini oldi.

Asrimizning 30-40 yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O'rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan, xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklarga nay, rubobsimon cholg'u, doira, do'mbira va shu singari cholg'ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproqqal'a, Ayratam (Ayratam frizi deb ataladi) kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: lyutiya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud,

shemane (musiqor), chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularida mashq qilishlari tasvirlangan.



Cholg'uchi ayollar ansambli. II asr. Ayratam frizi

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli", kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish juda qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa, karnay, surnay, nog'ora va chindoul kabi va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan. Xalq raqslari aslida qosh o'yini, yelka o'yini bosh o'yini kabilarni o'z ichiga olgan. Ular qarsak jo'rligida ham ijro etilgan.

Feodalizm davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi. VII asrda Osiyoga arablarning kirib kelishi keng hududda arab xalifaligini barpo etdi. Tirik jonzo'ni tasvirlashni taqiqlovchi islom dinining yoyilishi devoriy suratlarni, shu jumladan, musiqa cholg'ulari tasvirining barham topishiga olib keldi. VII-VIII asrlardagi arab istilosi O'rta Osiyo madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

IX asr oxirida Somoniylar mahalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu yerda adabiyot va

musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o'zgarishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushda musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O'sha paytlardayoq yakkanaovoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal-cholg'u musiqa turkum turlari mavjud edi. Saroy a'yonlari tantanali marosimlarida ijro etilgan musiqa alohida o'rin tutgan. Odatda, bu bir necha damli (karnay, surnay) va urma zarbli cholg'ular (nog'ora, chindovul) asboblarning birgalikda chalinishidan hosil bo'lgan. Dutor ijrochiligi o'sha paytda faqat kamer xususiyat kasb etgan bo'lib, bu ijrochilik san'atini asosan, ayollar egallagan edilar.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabir"), Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitob ush-shifo") qomusidagi "Musiqa haqidagi risola", Al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitob" yoki "Sharafiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Safiuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmiya shahrida tug'ilgan. Safiuddinning eng katta yutug'i lad ("modus")larining mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqa al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u: "...Jang-u jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngilochar bazmlarda hamda ishq-muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor", -deb, yozgan edi.

Musiqiy san'atimizning gavhari sanalmish "Shashmaqom" milliyligimizning kasbiy mumtoz ijrochiligida eng qadimgi, yirik va murakkab janr hisoblanib, u jahonni o'z ruhiy taassurotlari bilan lol qoldirib kelmoqda. Avesto, Sug'diyona, Zardushtiylik va Buddaviylik, Borbad Marvaziy hamda ulug' alloma, o'z davrining olimlari orasida

jahonning ikkinchi o'qituvchisi nomi bilan mashhur al-Forobiy, fit-tib-u olam shahanshohi va raisi Ibn Sino, Abdul Qodir Marog'iy, Darvesh Ali va boshqalar tomonidan Shashmaqom va maqom o'qitish usullarida nazariy va amaliy tasniflar tadbiriq etilgan.

Ayniqsa, Forobiy va Ibn Sino aruz, vaznlarini ishlab chiqqanligi haqida tadqiqotchi Said Bolta Zoda Saidiyning e'tiborga loyiq bo'lgan bir qator ilmiy tadqiqotlari mavjudligini ta'kidlash joiz. Professor A.Odilov ma'lumotiga ko'ra: "Sharq usul ta'limotlarining psixologik taassurotlarida ushbu olimlarning zarb-usullari ham Sohibqiron Amir Temur va temuriylar tomonidan harbiy yurishlarda keng qo'llanilgan edi".

Milliy musiqa san'ati mustaqillik davrida o'z ildizlari sari yo'l ochib, jahonda yana ham kengroq tanila boshladi. Ayniqsa, maqom san'ati, jumladan, Shashmaqom, inson tarbiyasida yosh tanlamasligi bola tarbiyasining asosiy omili bo'lib kelganligi bugungi kunda o'z isbotini topmoqda. Maqomlardagi ohang tuzilishining qolipi bo'lmish:

- usul, jahon tarixida zarblar xazinasining mo'jizasidir;
 - ohang shakli tizimini doira va nog'ora cholg'u sozlari boshqaradi.
- Undagi ayrim doira usullari inson yurak tebranishi bilan hamohang ekanligini, san'atshunoslik va sharqshunoslik olimlarining ilmiy risolalaridan misollar keltirib anglash mumkin;
- Shashmaqom, ilohiy-ruhiy kuchlarni, falsafiy qilib aytganda, undagi psixologik tavsiflanishlarda insonni ezgulikka, poklik, jasurlik va mardlik, ayniqsa, orombaxshlikka chaqiradi.

Milliy cholg'ulardan doira urma cholg'usi nafaqat kuchli ruhiy, balki ilohiy taassurotlarni qo'zg'ashga qodir. Shu bilan bir qatorda cholg'u musiqiy (estetik) va nomusiqiy (noestetik) xususiyatlarga ega bo'lib, u orqali ruhiy xastaliklarni davolaganlar. Doira kishilar hayotida, ayniqsa, bola tarbiyasida muhim o'rin tutib, uning hayotida juda keng tavsifiy gavdalanadi hamda uning butun hayoti davomida psixologik ruhiy ahamiyat kasb etib boradi. U nafaqat bola ongida, balki ong osti harakatlarida, oliy asab faoliyatida differensial qo'zg'alishi natijasida ilohiy zarb-usullari bilan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu zarb-usullar "Shashmaqom" ijrosidan ham o'rin olgan. "Shashmaqom"dagi ijroviy mazmundan shakllanadigan ruhiy taassurotlar nafaqat vokal va instrument yoki raqs janrlari, tilda samo'la (kosmologik intonnatsiya) kuylash, ayniqsa, aruz tizimi doira usuli ta'sirchanligi bilan bog'lanib, alohida o'rin tutadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ba'zi rivojlangan va madaniylashgan jahon davlatlarida yosh bolalarning dunyoqarashini keng, ongini milliy o'zaklarda rivojlantirib tarbiyalash vositasi sifatida irodasini mustahkamlash uchun bog'cha va maktablarda an'anaviy musiqa orqali tarbiyalash yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda esa chuqur tarixga ega milliy an'anaviy musiqalardan o'rinli foydalanilgan. Jumladan, "Shashmaqom" asoslaridan bahramand bo'lish va foydalanish darajasi kun sayin ortmoqda.

Zero, "Shashmaqom" bugungi kunda yirik Yevropa mamlakatlari insonlarini kuchli ruhiy taassurotlari bilan hayratda qoldirmoqda. "Shashmaqom"ning nasr va mushkilot qismlari ruhiy terapevtik jihatdan asab, yurak, qon bosimlari, kunduzgi va kechki arteriyalar va ayrim og'riqlarda hissiyot tuyg'ulari, xotirotni kuchaytiruvchanligi va fikrlashga chaqiruvchanligi kabi xususiyatlarga ega bo'lib, u jahon olimlari e'tiborini tobora jalb etib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild, (tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov va S.Ochil). –T., "O'qituvchi", 1995 yil.
2. Абуль Ала Ал-Мааррий. Избранное.-М.: Художественная литература. 1990 год.
3. Zayniddin Muhammad G'azzoliy. Kimyoviy saodat. –T.: "Kamalak". 1995 yil.
4. Журабек Тураевич Ярашев МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnaya-terapiya> (дата обращения: 13.10.2021).
5. Ярашев Журабек Тураевич НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ С СЕМЬЕЙ И ШКОЛОЙ // Academy. 2021. №3 (66). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchaschihsya-v-sotrudnichestve-s-semiey-i-shkoley> (дата обращения: 13.10.2021).
6. Yarashev J. T. Bukhorcha" and" Mavrigi" song classes-as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation //Традиционная и современная культура: история, актуальное положение, перспективы. – 2013. – Т. 114. – С. 2181-1601.
7. Yarashev D. T., Akhrorov K. K. IN THE GROWTH OF MUSICAL ABILITIES OF STUDENTS IMPORTANCE OF USING THE ACT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 792-796.
8. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of" Buchar" Tune //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – С. 118-122.
9. Uktamovna M. D. MUSICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS ON THE SPIRITUAL EDUCATION OF PERSONAL PERFECTION //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

11. Tourayevich Y. J., Uktamovna M. D. METHODS OF DEVELOPING STUDENT VOCAL DYNAMIC SENSE IN MUSIC CULTURE CLASSES //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

12. Dilnavoz O. MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5.

13. Uktamovna M. D. PEDAGOGICAL SKILLS OF A MUSIC TEACHER ORGANIZING AND CONDUCTING A LESSON.

14. Yarashev J. T. Research on Bukhara music heritage through axiologic features //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12. – C. 2181-1601.

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA FENOLOGIK KUZATISHLARNING O'RNI

MAVLONOV AHMADJON
MUHAMADOVICH

*Geografiya fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro
davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrası
mudiri*

Annotatsiya. Tabiiy fanlardagi tadqiqot usullari orasida kuzatish usuli muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda fenologik kuzatishlarning ahamiyati va o'rni o'rganilgan. Tadqiqotda fenologiya tushunchasi va uning mazmuni, lug'aviy ma'nosi ochib berilgan. Shuningdek, maqolada fenologik kuzatishning xususiyatlari keltirilgan. Bundan tashqari, fenologik kuzatishning 5 ta qismlari - gidrometeorologik hodisalarni kuzatish; daraxt va butalarning rivojlanishidagi fenologik fazalarni kuzatish; donli ekinlar rivojlanishidagi fazalarni kuzatish; qushlar hayotidagi fenologik fazalarni kuzatish; qishloq xo'jalik ishlarining borishini kuzatish tartibi o'rganilgan. Maqolada nafaqat tabiiy muhitda, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham kuzatishlar olib borilishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot usullari, tabiiy hodisa va jarayonlar, kuzatish usuli, fenologik kuzatishlar, fenologiya, geofenologiya, fenologik fazalar, o'lkashunoslik, hudud.

Аннотация. Среди методов исследования в естественных науках важное место занимает метод наблюдения. В данной статье рассматривается значение и роль фенологических наблюдений в преподавании естественных наук. В исследовании раскрывается понятие фенология и его содержание, лексическое значение. В статье также представлены особенности фенологического наблюдения. Кроме того, 5 частей фенологического наблюдения - наблюдение за гидрометеорологическими явлениями; наблюдение за фенологическими фазами развития деревьев и кустарников; наблюдение за фазами развития зерновых культур; наблюдение за фенологическими фазами жизни птиц; изучен порядок контроля за ходом сельскохозяйственных работ. В статье считается, что наблюдения должны производиться не только в природной среде, но и в экономической и социальной сферах.

Ключевые слова: методы исследования, природные явления и процессы, метод наблюдений, фенологические наблюдения, фенология, геофенология, фенологические фазы, краеведение, территория.

Annotation. Among the methods of research in the natural sciences, an important place is occupied by the method of observation. This article discusses the importance and role of phenological observations in the teaching of natural sciences. The study reveals the concept of phenology and its content, lexical meaning. The article also presents the features of phenological observation. In addition, 5 parts of phenological observation - observation of hydrometeorological phenomena; observation of phenological phases of development of trees and shrubs; monitoring the development phases of grain crops; observation of the phenological phases of bird life; studied the procedure for monitoring the progress of agricultural work. The article believes that observations should be made not only in the natural environment, but also in the economic and social spheres.

Key words: research methods, natural phenomena and processes, method of observation, phenological observations, phenology, geophenology, phenological phases, local history, territory.

Tabiiy fanlar yo'nalishlarida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida kuzatish usuli alohida o'rin tutadi. Chunki, tabiatdagi barcha hodisa va jarayonlar kuzatish usuli orqali o'rganib boriladi. Ma'lumki, tabiiy jarayonlar ritmik yoki mavsumiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular ma'lum bir tartibda takrorlanib turadi. Insonlar qadim zamonlardan boshlab tabiiy hodisa va jarayonlarni kuzatib, undan o'zining xo'jalik faoliyatida keng foydalanib kelmoqda.

Fenologiya – tabiat va uning o'zaro aloqador bo'lgan barcha komponentlari mavsumiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan amaliy bilimlar yo'nalishidir. "Fenologiya" atamasi ilk bor 1853 yilda belgiyalik botanik Sh.Moran tomonidan fanga kiritilgan (fenologiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, fen – belgi, nishon, dog', chizgi, shakl, hodisa ma'nosiga ega). Dastlab fenologiya organik dunyoda sodir bo'ladigan mavsumiy o'zgarishlarni o'rganadigan fan sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik u boshqa fanlarga ham tadqiqot usuli tarzida kirib keldi.

Mashhur tabiiy geograf S.V.Kolesnik "Fenologiya – geografik landshaftni mavsumiy o'zgarishi haqidagi ta'limotdir", deb qayd qilgan edi [10]. I.Q.Nazarov fikricha "Fenologiya – jonli va jonsiz tabiatda

namoyon bo'ladigan belgi, chizgi, shakl, hodisa va jarayonlarni kuzatish va ulardan olinadigan axborotlarni sintez qilish bilan shug'ullanadigan fandir" [9].

Fenologiya bilish usuli asosini jonli kuzatish va olingan ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish tashkil qiladi. Kuzatuvchanlik esa izlanuvchining tajribasi, kasbiy malaka darajasiga bog'liq. "Kuzatuvchanlik – buyuk iste'doddir", deb yozgan edi ingliz tabiatshunosi Djon Lebbok (1834-1913).

Bugungi kunda fenologik kuzatishlardan barcha fanlarga tegishli tadqiqotlarda foydalanish mumkin. Geofenologiya (geografik fenologiya) fenologik o'rganishlarning yuqori darajadagi bosqichlaridan biridir. Geofenologik kuzatishlar ikki tamoyil asosida amalga oshirilishi lozim. Birinchisi, kuzatishlar ma'lum hududga (landshaft yoki uning morfologik qismlariga) bag'ishlanadi. Ikkinchisi esa kuzatuvlarning majmuali bo'lishidir. Ya'ni ushbu hududga tegishli barcha fenoindikatorlar (geologik, geomorfologik, iqlimiy, gidrologik, pedologik, biologik, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va h.k.) tahlil va sintez qilinadi. Har bir fenoindikator esa ma'lum mavzular bo'yicha axborot beruvchi manbadir [9].

Geofenologik kuzatishlarning ikki tamoyilidan ham o'lkashunoslikda foydalanish mumkin. Ayniqsa, kuzatuvlarning majmuali bo'lishi o'lkashunoslikka doir tadqiqotlarni olib borishda qo'l keladi. Umuman, o'lkashunoslikda fenologik kuzatishlar o'lka tabiatidagi ob'ektlar va jarayonlarning bir butunligi va o'zaro aloqadorligi to'g'risida xulosalar chiqarishga yordam beradi. Shuningdek, qo'shni rayon va hududdagi mavsumiy o'zgarishlar bilan taqqoslash hamda farq qiladigan jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Fenologik kuzatishlar quyidagi xususiyatlarga ega [7]:

1. Fenologik kuzatishlar sodda va oddiy bo'lib, tabiatni sevadigan o'quvchi va talabalarga bunday ishlarni amalga oshirish qiyinchilik tug'dirmaydi;

2. U ayrim yo'nalishlardagi (meteorologiya, gidrologiya, botanika, zoologiya, tuproqlar geografiyasi) tabiiy jarayonlarni o'rganishda maxsus asbob va jihozlarni talab etmaydi;

3. O'quvchi va talabalar (o'z uyi yoki ta'lim muassasasida) fenologik kuzatishlarni yil bo'yi amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Mahalliy fenologik kuzatishlar natijalarini qishloq xo'jalik ishlarini tashkillashtirish hamda o'rmon, dala, bog' va suv havzalaridan samarali foydalanishda tadbiq qilish katta amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari,

fenologik kuzatishlar orqali o'lkada atmosferasidagi mavsumiy o'zgarishlar, hududdagi suv obyektlari, tuproq, o'simlik va hayvonot olamida hamda inson xo'jalik faoliyatining ta'siri to'g'risida aniq xulosalar berish mumkin. Bunday kuzatishlarni amalga oshirishda o'rganilayotgan o'lkada uchun eng tipik bo'lgan hudud va ob'ektlarni – landshaftlar, suvliklar, o'simlik va hayvonot turlarini tanlab olish talab etiladi. Har bir ob'ektning geografik o'rni, reliefi, gidrografik to'riga qisqacha tavsif beriladi. Shaharlarda fenologik kuzatishlarni park va xiyobonlar, istirohat bog'lari, yashil zonalarida olib borish maqsadga muvofiq (alohida daraxt yoki butalarda emas, balki ularning to'liq populyatsiyalari bo'yicha kuzatishlar olib borish kerak).

Kuzatishlar natijalari jurnalda (kundalikda) berib boriladi va shu asosda oylik fenologik taqvim tuziladi. Bir necha yillik kuzatishlar ma'lumotlarini taqqoslash turli xil amaliy sohalarni boshqarishga, hudud tabiati rivojlanishining muhim fenologik fazalarni boshlanishi va tugashining o'rtacha muddatlarini aniqlash imkonini beradi.

Fenologik kuzatishlar quyidagi qismlardan iborat [6]:

- gidrometeorologik hodisalarni kuzatish;
- daraxt va butalarning rivojlanishidagi fenologik fazalarni kuzatish;
- donli ekinlar rivojlanishidagi fazalarni kuzatish;
- qushlar hayotidagi fenologik fazalarni kuzatish;
- qishloq xo'jalik ishlarining borishini kuzatish.

Gidrometeorologik hodisalarni kuzatish

1. Dastlabki qor erishining boshlanishi
2. Qorni tez (intensiv) erishining boshlanishi
3. Qor qoplamining to'liq yo'qolishi
4. Daryolarning muzdan xalos bo'lishi (muz erishining boshlanishi va oxiri belgilanadi)
5. Eng ko'p bahorgi toshqinlar (to'lin suv) davri
6. Ko'l va havzalarda muz qoplamining yo'qolishi
7. O'rmonda (bog' va parklarda) qor qoplamini batamom erib ketishi
8. Birinchi to'p-to'p bulutlarning paydo bo'lishi
9. Dastlabki bahorgi yomg'irning yog'ishi
10. Bahordagi ilk momaqaldiroq
11. Havoning oxirgi ayozi (harorat 0° yoki undan past bo'lgan oxirgi sana)
12. Tuproqning oxirgi muzlashi

Daraxt va butalar rivojlanishidagi fenologik fazalarni kuzatish

1. Havo haroratining $+5^{\circ}$ dan yuqori, daraxt novdasining quyoshga qaragan tomonidagi dastlabki o'zgarishlar (novda rangini o'zgarishi va o'simlik tanasida suv harakatining boshlanishi)

2. Kurtaklarning hosil bo'lishi

3. Dastlabki barglarning chiqishi

4. Gullashning boshlanishi (bir xil turdagi 3-4 daraxt yoki butada kunduzi gullar ochilishini kuzatish)

5. Daraxtlarni yoppasiga gullashini kuzatish

6. Meva va urug'larning pishib etilishini kuzatish

7. Daraxt barglaridagi kuzgi o'zgarishlarni kuzatish

8. Xozonrezlikni boshlanishi

9. Kuzda barglar rangini to'liq o'zgarishi

10. Xozonrezlikning tugashi

11. Daraxt va butalarning takroriy (ikkinchi marta) gullashi: takror gullagan o'simlik turi, yakka yoki yoppasiga gullaganligi, gullagan o'simlikni joylashgan o'rni, gullamagan o'simliklar bilan farqini o'rganish

Donli ekinlar rivojlanishidagi fazalarni kuzatish

1. Dastlabki maysalarning unib chiqishi

2. Yoppasiga maysalarning unib chiqishi

3. Maysalar uchinchi barglarining hosil bo'lishi

4. Shoxlashning boshlanishi

5. Naychalarning hosil bo'lishi

6. Don boshoqlarini hosil bo'lishi

7. Gullash davri

8. Donning sut pishish (sutli donni hosil bo'lish) davri

9. Donning mum pishish (xamirli donni hosil bo'lish) davri

10. Donning to'liq pishib yetilishi

Qushlar hayotidagi fenologik fazalarni kuzatish

1. Qushlarning bahorgi uchib o'tishi (qishlab qolganlarning uchib ketishi, boshqa hududlardagi qushlarning uchib o'tishi, jumladan, yoppasiga va kichik galalarda)

2. Bahorgi uchib kelishi (xarakterli qush turlarini uya qurish joyiga uchib kelishi)

3. Uya qurishning boshlanishi

4. Dastlabki jo'jalarning chiqishi

5. Qushlarni uchib ketish oldidan kuzgi galalarining paydo bo'lishi

6. Kuzgi uchib ketish (uya qurish joyidan uchib ketish, turlarni yoppasiga uchib o'tish kunlarini qayd qilish, qishlovchi qushlarni uchib kelish kunlarini belgilash)

Qishloq xo'jalik ishlarining borishini kuzatish

1. Bahorgi tuproqqa ishlov berishning boshlanishi (erlarni yumshatish, baranalash, tekislash ishlarini bajarilishi)

2. Dala ishlarining boshlanishi (ochiq maydon va issiqxonalarda ekinlarni ekish, meva va sabzavot ko'chatlarini o'tqazish)

3. Ekinlarni parvarish qilish (qishqi va boshqa ekinlarni oziqlantirish, o'g'it berishning boshlanishi, donli, texnik, yem-xashak va sabzavot ekinlariga ishlov berish, etishtirilgan ekinlar hosilini yig'ishtirish)

4. Kuzgi tuproqqa ishlov berishning boshlanishi (shudgorlash)

Fenologik kuzatishlarni nafaqat tabiiy muhitda, balki, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda ham kuzatish mumkin. Jumladan, mustaqillik yillarida iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar yildan yilga yaxshilanib kelmoqda. Xususan, keyingi besh yillikda "obod mahalla" va "obod qishloqlar"ning qurilishi, ularda aholi uchun yaratilgan qulayliklar, mustaqillikni nechog'li beqiyos ne'mat ekanligidan dalolatdir.

Shuningdek, kuzatishlarni ma'lum bir hudud (tabiiy va iqtisodiy rayon, daryo havzasi [1,2], ma'muriy birlik, shahar va h.k.) yoki soha va tarmoqlar bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Masalan, istiqlool davrida avtomobilsozlik yangi tarmoq sifati vujudga keldi va rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va turizm kabi ijtimoiy sohalar ham tez sur'atlarda taraqqiy etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy yo'nalishdagi tadqiqotlarda fenologik kuzatishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega. Fenologik kuzatishlar orqali o'quvchi va talabalar tabiat hodisasi va jarayonlari haqida o'zlari uchun qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Ayniqsa, tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan foydalanish malakasi ham kuzatish va o'rganishlar asosida amalga oshiriladi. Bunda hududlarning iqlimiy, gidrologik, tuproq, biologik, mineral va hatto turizm va rekreatsiya resurslarini [3,4] ham fenologik kuzatishlar orqali o'rganib va ulardan iqtisodiy-ijtimoiy sohalar rivojlanishida foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonov A. M., Nematov A. N. THE INFLUENCE OF THE ZARAFSHAN RIVER ON THE DEVELOPMENT OF CITIES //Экономика и социум. – 2020. – №. 11. – С. 229-232.

2. Mavlonov Ahmadjon Muhamadovich, Usmanov Ahror Uygun ugli. DEVELOPMENT OF MIDDLE CITIES IN ZARAFSHAN REGION // **Vol. 6 Issue. 12 (December-2021) EPRA International Journal of Research & Development (IJRD)**

3. Ahmadjon Muhamadovich Mavlonov, Istat Elmurodovna Mirzoeva, Anvar Nusratovich Nematov, Charos Zarifovna Jalilova. GROUPING AND ASSESSMENT OF TOURISM AND RECREATION RESOURCES OF BUKHARA REGION // **Vol. 7 Issue. 6 (June-2021) EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)**

4. Muhammadovich M. A., Zarifovna J. C. GEOGRAPHICAL ASPECTS OF USE OF RECREATION RESOURCES FOR TOURISM (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION) //EDITOR COORDINATOR. – 2020. – C. 1081.

5. Mavlonov A., Saidova D. Boshlang'ich sinflarda "yosh tabiatshunos" to'garagini tashkil etishning ilmiy-amaliy ahamiyarti // Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsion raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022.

6. Даринский А.В., Кривоносова Л.Н. и др. Краеведение. – Москва, Просвещение, 1987. 160 с.

7. Mavlonov A.M., Bahromov Q.H. Geografik o'lkashunoslik. – Buxoro, 2016.

8. Мешечко Е.Н. Географическое краеведение. -Минск, «Университетское», 1986.

9. Nazarov I.Q., Toshov X., Allayorov I. Landshaftlarni kartalashtirishda geofenologik usuldan foydalanish // Tabiiy va iqtisodiy geografik rayonlashtirishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari. –Toshkent, 2004. B. 247-249.

10. Хромов С.П., Мамонтова Л.И. Метеорологический словарь. – Ленинград, Гидрометеиздат, 1974. 569 с.

AKADEMIK BO'RIBOY AHMEDOV ILMIY TADQIQOTLARIDA BUXORO

S. RAJABOV

*Buxoro davlat pedagogika instituti,
ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi.*

Annotasiya: Ushbu maqolada tarixshunos olim akademik Bo'riboy Ahmedov tadqiqotlarida uchraydigan Buxoro tarixiga oid ma'lumotlar tahlil etilgan. Olim ilmiy me'rosining Buxoro tarixi bilan bog'liq qismi tarixiy manbalarni chuqur tahlil etish orqali yaratilgani va ushbu ma'lumotlarning yuqori ilmiy qiymatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются данные по истории Бухары, которые содержатся в исследовании ученого-историографа академика Бурибая Ахмедова. Часть научной работы ученого, связанная с историей Бухары, была создана на основе глубокого анализа исторических источников, и очевидно, что эта информация имеет высокую научную ценность.

Abstract: The article analyzes information on the history of Bukhara found in the research of Academician Boribai Akhmedov. Part of the scientific heritage of the scientist, related to the history of Bukhara was created through an in-depth analysis of historical sources, and it is explained that this information has a high scientific value.

Kalit so'zlar: Buxoro, B. Ahmedov, Jo'ybor shayxlari, "Bahr ul asror", "SHayboniynoma", saroy marosimlari, turk-mo'g'ul, tarixiy manbalar.

Ключевые слова: Бухара, Б. Ахмедов, джойборские шейхи, «Бахр ул асрор», «Шайбанинома», придворные церемонии, тюрко-монголы, исторические источники.

Keywords: Bukhara, B. Ahmedov, Dzhoybor sheikhs, "Bahr ul asror", "Shaybaninoma", court ceremonies, Turko-Mongol, historical sources.

Tarixshunos, sharqshunos, manbashunos olim akademik B.A. Ahmedov 1924-yil 12-avgustda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani Qorasuv qishlog'ida dunyoga kelgan. U 1953 yilda O'rta Osiyo universitetining sharq fakultetini bitirgan. 1960 – 1990 yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasi SHarqshunoslik institutida, 1995-yildan umrining oxiriga qadar xalqaro Amir Temur jamg'armasi raisi sifatida faoliyat yuritgan¹³. Olim ilmiy faoliyatining asosiy qismi manbashunoslik

¹³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент. 2000 й.

yo'nalishida bo'lib, o'zbek xalqining etnik tarixi va shakllanishi, O'rta Osiyo xalqlarining X – XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, Temur va temuriylar davri tarixi hamda madaniyati xususan, Buxoro qadimiy va o'rta asrlar tarixini ilmiy o'rganishga qaratilgan.

B. Ahmedov Buxoro tarixidan darak beruvchi Muhammadyor ibn Arab Muhammad Qatag'onning "Musaxxir al-bilod" ("Mamlakatlarning fath etilishi") asaridan o'zining ilmiy ishlarini yozishda juda unumli foydalangan bo'lib, asarni O'rta osiyo tarixiga oid muhim manbaa ekanligi qayd etgan. Olimning guvohlik berishicha asarning ikki nusxasi (Toshkent va Sankt-peterburg) bizga qadar yetib kelgan bo'lib, unga qadar o'rganilmagan.

B. Ahmedovning "O'rta osiyo tarixiga oid muhim asar"¹⁴ nomli tadqiqotida "Musaxxir al-bilod" asarida Buxoro tarixi bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar mavjudligini, jumladan, to'rtinchi bobda Abdullaxon II va uning o'g'li Abdulmo'min bilan kelishmovchiliklar, qurolli to'qnashuvlar hamda mamlakatning ahvoli to'g'risida, oltinchi bobida Buxoroning diqqatga sazovor osoru atiqalari, muallif bilan zamondosh bo'lgan shayxlar, olimlar va shoirlarning hayotiga bag'ishlanganligini ta'kidlab, boshqa manbaalarga qaraganda batafsil ma'lumotlar keltirilganligini qayd etadi. Olim ushbu manbaani tahlil qilar ekan, mamlakatning o'sha vaqtlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid materiallar, ulus tizimi, "tarxonlik" va "suyurg'ol" institutlari, soliqlar hamda qavmlar shuningdek, jo'g'rofiy ma'lumotlar, ya'ni Buxorodagi Ko'li malik va boshqa mavzelar to'g'risidagi ilm-fan uchun qimmatli ma'lumotlarning ko'pligiga e'tibor qaratadi.

Tarixshunos olim "Musaxxir al-bilod" dan yana bir muhim, boshqa manbaalarda uchramaydigan bir ma'lumotga duch keladi. Bu o'sha vaqtlarda Sirdaryoning o'rta oqimi nohiyasida istiqomat qilgan qoraqalpoqlar va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni haqidagi mahlumotlardir. Ma'lum bo'lishicha, qoraqalpoqlar qozoq sultonlari (Ishim sulton, bahodir sulton va h.k.) Abdullaxon II Buxoroda bo'lmagan vaqtda yoki mamlakatda notinchlik hukm surgan vaqtlarda marhum shayboniy xonlardan birontasining nomi bilan atab xon ko'tarib turg'nalar. Masalan, 1578-yili ular qandaydir Shayximxonni (SHayboniy Shayxim sulton nomidan), 1582-yili soxta Baroqxonni (Shayboniy Navro'z Ahmadxon nomidan), 1604-yili Ashtarxoniy Boqi Muhammadxon

¹⁴ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. "Ўқитувчи". Т. 1994. 378-б.

hukmronlik qilgan davrda soxta Abdulg'afforxonni (Abdulg'affor suton nomidan) xon deb e'lon qilganliklari boshqa hech bir manbaada uchramaydi. Buxoro xonligining Eron hamda qozoq xonligi o'rtasida XVI – XVIII asr boshlaridagi tashqi siyosiy munosabatlarga oid ma'lumotlar mavjudligini qayd etgan¹⁵.

Badriddin Kashmiriyning "Ravzat ar-rizvon va hadiqat al-g'ilmon" ("Jannat bog'i va g'ilmonlar hadiqasi") asarini tahlil qilar ekan B. Ahmedov asar qimmatini "Buxoro xonligining XVI – XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan Jo'ybor shayxlarining feodal xo'jaligi haqida to'la tasavvur bera olishi bilan ham o'lchanadi" deya ta'riflagan¹⁶. Olim asarda yuzdan ortiq maktub nusxalari keltirilganligi va ushbu maktublarda Buxoro xonligining ichki-siyosiy ahvoli, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar, Buxoro xonligining Xiva xonligi, Boburiylar saltanati, Balx, Eron va Sharqiy Turkiston bilan munosabatlariga oid masalalar bayon etilganligini ta'kidlaydi.

B.Ahmedovning "Binoiy "Shayboniynoma" asarining noma'lum naqli" nomli maqolasida, "Shayboniyyon, ba'zi olimlar o'ylaganiday, besavod, qo'pol bir ko'chmanchi emasdi. U zamonasiga yarasha keng ma'lumotli odam, qolaversa istedodli shoir ham edi. Lekin uning qaerda va kimning qo'lida tahsil ko'rgani, hokimiyat tepasiga kelmasidan burun uning bilan tanish-bilish bo'lgan olimlar haqida ishonchli ma'lumotga ega emas edik degan qarashlari e'tiborga molik bo'lib, "Shayboniynoma"ning kengaytirilgan naqlida bu haqda muhim ma'lumotlar uchratdik. Ana shu ma'lumotlarga ko'ra, Shayboniyyon hali hokimiyat tepasiga kelmasdan burun ham bir-necha bor Buxoroda bo'lgan. Birinchi marta bo'lganida u Buxoroyi sharifda ikki yil turib, madrasada mashhur ilohiyat olimi mavlono Muhammad Xitoydan ta'lim olgan, mashhur shayx va olim xoja Muhammad Porso (1419-yili vafot etgan)ning izdoshlaridan Hofiz Husayn Busiriy va uning xalfasi xoja Mahmudlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan¹⁷ligi bo'yicha ma'lumotlarni keltirib, Shayboniyyonning ilmiy kishi bo'lganligini tahlil qilish bilan bir qatorda Buxoro o'sha davrning ilm markazi bo'lganligini, madrasalarda o'z davrining yetuk olimlari faoliyat yuritib saboq berilganligi olim tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

B. Ahmedov o'zining "Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asari va uning o'rganilishi" nomli maqolasida Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror

¹⁵ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. "Ўқитувчи". Т. 1994. 382-б.

¹⁶ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. "Ўқитувчи". Т. 1994. 265-б.

¹⁷ Аҳмедов Б.Тарихдан сабоқлар. "Ўқитувчи". Т. 1994. 248-б.

fi manoqib ul-axyor” (“Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi”) asarini 1977-yilda diqqatga sazovor joylarini to’plab, 150 ga yaqin parchani monografik tarzda rus tilida so’z boshi va zarur izohlar bilan e’lon qilganligini, o’zining ko’chmachi o’zbeklar davlati to’g’risidagi (Moskva, 1965) va Balx xonligi (Toshkent, 1981)ga bag’ishlangan monografiyalarning yuzaga kelishida asosiy manba bo’lganini qayd etadi. Olim mazkur asarning xotima qismini tahlil qilib Buxoro tarixiga oid “turk-mo’g’ul qabilalarining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o’rni, Balx va Buxorodagi o’zbek xonlari saroyida mavjud bo’lgan tartib va marosimlar to’g’risida”¹⁸ – ma’lumotlarni keltiradi. “Baxr ul-asror” asarining B. Ahmedov muharrirligida 1977-yilgi e’lon qilingan nashri¹⁹dagi so’zboshi qismida Mahmud ibn Valining Movarounnahr, Eron, Afg’oniston, Hindistonda bo’lgan vaqtlarida savdogarlar va sayohatchilardan, shuningdek, Balx, Hindiston, Koshg’ar, Rossiya va Buxoroga tashrif buyurganlar tomonidan to’plagan ishonchli ma’lumotlar asosida shaharlarning o’sha vaqtdagi holati, xususan, Buxoro bilan bog’liq jo’g’rofiy joylarning to’liq tasvirlanganligi e’tiborga molikdir. Olim tomonidan “Bahr ul-asror” asarining tarjima qilingan qismlari orasida Buxoro tarixi bo’yicha bir qator ma’lumotlar keltirilib, jumladan, Buxoro shahri Movarounnahrning beshinchi iqlimiga ega markaziy va poytaxt shaharlaridan ekanligi, “islom gumbazi” deb nomlanishi, hosildor ekin yerlarining ko’pligi, uzum va qovunning eng sara navlari mavjulligi, Buxoroning o’nta tuman bilan chegaradoshligi, zardane oq gullarining navlari, Buxoroning olxo’ri va olchasi mashhurligi kabi parchalar shular jumlasidandir. B. Ahmedovning tarjimasi orqali o’sha vaqtga qadar noma’lum bo’lgan Buxoroning islom dunyosida va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o’rni, qishloq xo’jaligi va tabiati (iqlimi), joylashuv o’rni bo’yicha bir qator qimmatli tarixiy ma’lumotlar keltirilgan.

B. Ahmedov “Hofiz tanish Buxoriy va uning “Sharafnomayi Shohiy” asari” nomli ilmiy tadqiqotini Hofiz tanish Buxoriyning “Sharafnomayi Shohiy” asari va o’rganilish tarixi, asarda keltirilgan ma’lumotlarning Buxoro tarixini o’rganishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratdi. Olim “Sharafnomayi shohiy” yirik shoh asar bo’lib, uni Juvayniyning “Tarixi Jahonkushoy” va Rashiddiddinning “Jome’ ut-tavorix” asarlari qatorida”²⁰gi nodir manbaa ekanligini, shuningdek asarni yozishda xon saroyida

¹⁸ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. “Ўқитувчи” Т. 1994. 229-б.

¹⁹ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. «Фан»-Т. 1977 г. стр -10.

²⁰ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. “Ўқитувчи” Т. 1994. 391-б.

yuritilgan maxsus kundaliklar, ishonchli va voqealarning shohidi bo'lgan kishilar og'zidan yozib olingan ma'lumotlardan foydalanganligi, bayon etilgan ko'p voqealar muallifning ishtiroki va o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar bo'lgani manbaani ishonchli bo'lishi bilan birgan qimmatini oshirgan deya ta'rif etadi.

Mazkur asarda Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, madaniy hayoti, Shayboniylar davlati va qo'shining tuzilishi, Buxoroning Eron, Turkiya, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Rossiya davlatlari bilan olib borgan siyosiy va savdo aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

“Sharafnomayi shohiy” ibn arab Muhammad qatag'onning “Musaxxir al-bilod”, Amin Ahmad Roziyning “Haft iqlim” kabi qimmatli tarixiy asarlari, Mutribiyning “Tazkirat ut-shuaro”, “Nusxayi zeboyi Jahongir” nomli asarlar kabi Abdullaxon davrining mahsuli bo'lish bilan bir qatorda, Buxoro tarixiga bag'ishlangan noyob manbaalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, akademik Bo'riboy Ahmedovning ilmiy tadqiqotlari, risola va monografiyalarida o'z davrining olimlari uchun ma'lum bo'lmagan qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Buxoro tarixini o'rganishda tadqiqotchilar uchun tarixiy tadqiqot manbaasi bo'lib xizmat qiladi. Olimning ilmiy tadqiqotlari ko'p qirrali bo'lib, ularning Buxoro tarixiga oid ayrim qismlarini tahlil qildik xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

8. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. “O'qituvchi”. T. 1994. 430 b.
9. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. “SHarq”. T. 1999.
10. Maxmud ibn Vali. More tayn otnositelno doblestey blagorodnyx. «Fan»-T. 1977 g.
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000.
12. “O'zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali. “Fan”. T. 1969. 11-son.
13. “O'zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali. “Fan”. T. 2005. 3-4-son.
14. To'raev H. “Buxoroni Balxga almashtirish voqeasi va xo'ja Islom Jo'yboriy”. “Buxoro mavjlari” jurnali.





MUNDARIJA

Daminov M.I. Buyuk kelajak sari	3
Muxtorov E.M. Psixologik kompetentlik - vrach kasbiy mahoratining muhim tarkibiy komponenti	5
Ikramov A.A. Umuta'lim Maktablarida axborot ta'lim texnologiyalari.....	11
Sharipov A.Z. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va milliy falsafa: Dialektik aloqadorlik va ma'naviy yangilanish	2221
Valireyeva G.I. The role of family relations in personal spiritual growth in didactic works	3130
Saidova R.A. Badiiy matn tahlilida semiotika va strukturalizmning o'рни	4140
Kadirova N. Variations analysis of transformation motif in the world literature	5049
Abdullayev M.J. Yengil atletika sport to'garaklarida mashg'ulot olib borayotgan 3 sinf qizlarining jismoniy tayorgarlik dinamikasi.....	5756
Abdullayev Y.Z. Harbiy ta'lim fakultetida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va undagi ma'naviy tizim holatini o'rganish sifatida	66
Yarashev J.T. Markaziy osiyoda musiqa madaniyatining shakllanish tarixi	7372
Mavlonov A.M. Tabiiy fanlarni o'qitishda fenologik kuzatishlarning o'рни	8382
Rajabov S. Akademik Bo'riboy Ahmedov ilmiy tadqiqotlarida Buxoro.....	89



Qaydlar uchun



Qaydlar uchun

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

ILMIY – METODIK JURNAL

BOSH MUHARIR

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
DAMINOV MIRZOHID ISLOMOVICH



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga
ruxsat etildi: 29.12.2022. Bichimi 60x84¹/₈. Kegli 14 shponli. « Palatino
Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'oz.
Bosma tabog'i 12.5 Adadi ____ . Buyurtma № ____ .



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiton Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46